

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA

O'QUV- USLUBIY MAJMUA

B.Rahimov, O.Suvonov «Pedagogika» fanidan o'quv- uslubiy majmua. Guliston. 2007 yil. 112 bet.

O'quv majmua 140000-o'qituvchilar tayorlash va pedagogika fani mutaxassisligi tayorlash bo'yicha ta'lim olayotgan magistr'larga tanlov fanlari doirasida o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, unda pedagogika fani predmeti va metodlari hamda boshqa jixatlariga doir ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanmada mavzularning nazariy asoslarini mukammal o'rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo'ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo'l-yo'riqlari tahlil qilindi.

O'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashtirmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan (1-sonli bayonnoma, 2007 yil 16 oktyabr) nashrga tavsiya qilindi.

Mas'ul muharrir: professor E.O.Turdiqulov

Muharrir: professor H. Mirhaydarov.

Taqrizchilar: k.i.x. A. Sulaymonov, dotsent X.Abdukarimov

В.Рахимов, О.Сувонов, Педагогика. Учебно-методическое пособие для студентов дневного отделения. Гулистан. 2007. 112 стр.

Данное учебно-методическое пособие раскрывает научные и практические основы педагогики.

В нём отражены основные компоненты педагогики, её формирование и внедрения в практическую деятельность педагогов.

Ответственный редактор: проф. Э.Турдикулов

Редактор: профессор Х. Мирхайдаров.

Рецензенты: доц. Сулайманов А., КПН.

ст. научный сотрудник УзНИИПН

доц. Х.Абдукаримов

B.Rakhimov, O.Suvonov. A methodical elaboration in "Pedagogika". Gulistan. 2007 y. 112 pg.

This educational - and - methodical elaboration intended to study the theoretical bases thoroughly, analyze, tasks for the comparing analysis, self-directed works, use gained knowledges in practice.

This methodical elaboration is recommended for printing by educational-methodic committee of Gulistan state university.

Chief editor: professor E.O.Turdikulov

Editor: X. Mirhaydarov.

Reviewers: A.Sulaymonov, X.Abdukarimov.

SO`Z BOSHI

Mustaqillik barcha jabhalarda bo`lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham katta o`zgarishlar yasadi. Ta'lim samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilish sifatini ta'minlash, hozirda pedagogikaning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

«Ta'lim to`g`risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirish jarayoni sifat bosqichga kirdi. Yangi o`quv dasturlari, o`quv rejalari, yangi avlod darsliklari, ta'lim standartlariga muvofiq holda ta'lim muassasalariga taqdim etildi. Ta'lim oldida turgan vazifalarni hal etish bevosita o`qituvchi faoliyatiga bog`liqdir. O`qituvchi o`quvchilarni bilim egallashda faollashtiradigan, barcha uchun qulay bo`lgan yo`llarni, usul va uslublarni, ta'limning turli xil vositalarini va vaziyatlarini izlaydi. Ulardan foydalangan holda pedagogik jarayonining samaradorligini oshiradi. Talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatib, ijodiy izlanishga, egallayotgan kasbining sirlarini bilib olishga yo`naltiradi.

Pedagogika fani jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o`tish yo`lida amalga oshirilayotgan ishlar milliy ong kun sayin yuksalayotganidan dalolat beradi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o`zgarish sezilmaydi. Ushbu qo`llanmada pedagogika fanidan o`tiladigan mavzular bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari berilgan. Talaba har bir mavzu bo`yicha yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lishi, kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlashi, axborot manbalaridan unumli foydalanishi, an'anaviy o`quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlashi, internet tarmog`idan maqsadli foydalanishi va berilgan topshiriqlarning yechimini belgilashi, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshishlari zarur. To`plamda mavzularning nazariy asoslarini mukammal o`rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo`ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo`l-yo`riqlari ishlangan.

To`plam talabalarining pedagogika fanidan oladigan bilimlarini ko`nikma va malakaga aylantirish uchun, pedagogik kasb xususiyatlaridan voqif bo`lishlari hamda kafolatlangan natijaga erishishlariga hissa qo`shishga yo`naltirilgan.

Ushbu to`plam oliy o`quv yurtining barcha yo`nalishidagi talabalari uchun mo`ljallangan.

I. Pedagogika fanining maqsad va vazifalari:

- 1.1. Fanning maqsadi: jamiyatning barcha aʼzolarini ijtimoiy ehtiyojga mos holda tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish, barkamol avlodni tarbiyalash.
- 1.2. Fanning vazifalari; oʻqitishning, taʼlim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalarini oʻrganish, yoshlarni zamonaviy pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, intellektual salohiyatini oshirish.
- 1.3. Fanni oʻrganishda talabalar xalqimizning boy maʼnaviy-maʼrifiy merosiga, fanning metodologik asoslariga tayangan holda ish koʻradilar.

II. Fanning mazmuni

2.1. Vaʼz mavzulari, koʻriladigan masalalar va vaqt

№	Mavzular	Koʻriladigan masalalar	Vaqt, soat
1.	Pedagogika fanining mohiyati, uning maqsadi va vazifalari.	1. Pedagogika fanining predmeti, uning maqsadi va vazifalari. 2. Pedagogikaning paydo boʻlishi va taraqqiyoti. 3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari. 4. Pedagogikaning metodologik asoslari. 5. Pedagogika fanlari tizim va boshqa fanlar bilan aloqasi. 6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.	2
2.	Oʻzbekistonda taʼlim tizimining taraqqiyoti.	1. «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonun Oʻzbekistonda taʼlim tizimini isloh qilish va takomillashtirishning asosi sifatida . 2. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» »Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonunning mantiqiy davomi sifatida. 3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli taʼlim tizimini rivojlantirishning asosidir. 4. Uzluksiz pedagogik taʼlim va uning rivojlanishi. 5. Oʻzbekistonda taʼlim tizimi barkamol shaxs tarbiyalashning omilidir.	2
3.	Tarbiya jarayoni, qonuniyatlari va metodlari.	1. Tarbiya jarayoni va uning maqsad-vazifalari. 2. Tarbiya jarayonining asosiy xususiyatlari. 3. Kasbiy tarbiya va kasbiy oʻz-oʻzini tarbiyalash. 4. Tarbiya qonuniyatlari va prinsiplari.	2

		5. Tarbiya metodlari.	
4.	Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari.	1. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari haqida umumiy tushuncha. 2. Aqliy tarbiya. 3. Axloqiy tarbiya 4. Mehnat tarbiyasi 5. Iqtisodiy va ekologik tarbiya 6. Nafosat va jismoniy tarbiya.	2
5.	Bo'lajak o'qituvchining kasb tarbiyasi, tarbiyachi va sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari.	1. Kasb tarbiyasi va uning mohiyati. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablar. 2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibi. 3. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda sinf rahbari va tarbiyachining roli. 4. O'quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o'rni. 5. O'quvchilar jamoasini rivojlantirish bosqichlari.	2
6.	Didaktika haqida tushuncha. Ta'lim jarayonining mohiyati va uni takomillashtirish tamoyillari.	1. Didaktikaning taraqqiyoti va asosiy muammolari. 2. Ta'lim jarayoni mohiyati va vazifalari. 3. Bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari. 4. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarining tasnifi.	2
7.	Maktabda ta'limning mazmuni va metodlari.	1. Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha. 2. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi davlat hujjatlar. 3. Ta'lim metodlari va ularning tasnifi. 4. Ta'lim metodlaridan samarali foydalanish yo'llari.	2
8.	Ta'limni tashkil etish shakllari.	1. Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha. 2. Dars va unga qo'yiladigan talablar. 3. Dars turlari va tarkibiy qismlari. 4. Ta'limni tashkil etishning qo'shimcha shakllari	2
9.	O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholash.	1. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyati. 2. Maktabda baho me'yorlari.- 3. Reyting tizimining mohiyati	2
10.	Maktabni boshqarish va unga rahbarlik	1. Boshqarish haqida tushuncha 2. Ta'lim tizimini boshqarishda vakolatli davlat organlarining huquqlari	2

	qilish.	3. Maktabni boshqarish tizimi	
Jami			20

2.2. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari , ko'riladigan masalalari, vaqti

№	Mavzu	Ko'riladigan masalalar	Vaqt , soat
1.	Pedagogika fanining mohiyati, uning maqsadi va vazifalari.	1. Pedagogika faning yaratilishidagi zaruriyat va sabablar. 2. Pedagogika fanining tadqiqot obyekti va predmetini qanday tushunasiz? 3. Pedagogikaning fan sifatida shakllanish tarixi. 4. Pedagogikaning asosiy tushunchalarni ta'riflang. 5. Pedagogikaning metodologik asoslarini izohlang. 6. Pedagogikaning tarkibiy qismlarni ayting. 7. Pedagogikaning rivojida boshqa fanlarning o'ri. 8. Pedagogikaning ilmiy- tadqiqot metodlaridan samarali foydalanish usullarini izohlang.	2
2.	O'zbekistonda ta'lim tizimining taraqqiyoti.	Hozirgi ta'lim tizimining asosiy xususiyatlari. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va »Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi va dolzarbligi. O'zbekiston respublikasi davlat siyosatining ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillarning mohiyatini izohlash. Ta'lim tizmi va turlarining tarkibiy qismlarini tahlil qilish. O'zbekiston ta'lim tizimining mohiyatini ochib beruvchi jadvallar tayyorlash 6. Shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni izohlang.	2
3.	Tarbiya jarayoni, qonuniyatlari va metodlari.	1. Tarbiyaga berilgan ta'riflar va ularning tahlili. 2. Tarbiyaning maqsad va vazifalarini izohlang. 3. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyaning uzviy bog'liqligini aniqlash. 4. Kasb tarbiyasi va uni amalga oshirish yo'llari. 5. Tarbiya metodlari tasnifi va samarli tatbiq	2

		etish shartlarini aniqlash. 6. Tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarining uzviy bog'liqligini tavsiflash.	
4.	Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari.	1. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini uzviy bog'liqlikda amalga oshishini izohlang. 2. Ayrim o'quv fanlarning o'quvchilar aqliy tarbiyasiga ta'siri. 3. Insonparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasining bola ma'naviyatida takomillashib borishini aniqlang. 4. Tejamkorlik va tabiatga oqilona munosabatni hosil qilishda maktab va oila hamkorligini o'rganish. 5. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarini tavsiflang. 6. Barkomol shaxs shakllanishida jismoniy tarbiyaning o'rnini ko'rsatib bering.	2
5.	Bo'lajak o'qituvchining kasb tarbiyasida tarbiyachi va sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari.	1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talablarni aniqlang. 2. Sinf rahbari va tarbiyachining shaxsiy xususiyatlarini izohlang. 3. Bir soatlik tarbiyaviy tadbirning reja-matnini tayyorlang. 4. Tarbiyaviy tadbirni samarali o'tkazish va tahlil qilish tartibini izohlang. 5. O'quvchilar jamoasi bola shaxsi kamolotiga ta'sirini tavsiflang.	2
6.	Didaktika haqida tushuncha. Ta'lim jarayonining mohiyati va uni takomillashtirish tamoyillari.	1. Didaktika tushunchasining mohiyatini izohlang. 2. Didaktikaning paydo bo'lishi va taraqqiyot bosqichlarini tavsiflash. 3. Asosiy didaktik muammolarni aniqlang. 4. Hozirgi davr didaktikasining ilg'or g'oyalari va ta'limotlarini sharhlang. 5. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining uzviy bog'liqligini ta'riflang. 6. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni psixologik tayyorlash shartlari. 7. O'quvchilarning bilim egallashlarida ta'lim qonuniyatlari va prinsiplariga amal qilish tartibini izohlang. 8. O'quvchilarning mustaqil, ongli va faol bilim egallashlarining shartlarini aniqlang.	2
7.	Maktabda ta'limning	1. Ta'lim mazmunining takomillashib borish xususiyatlarini aniqlang.	2

	mazmuni va metodlari.	2. Umumiy ta'lim fanlarining ta'limiy-tarbiyaviy mohiyatiga aniqlik kiriting. 3. DTS asosida o'quv rejasi, dasturlar va darsliklarning tuzilishini tahlil qiling. 4. Ta'lim metodlari modernizatsiyasi va zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning tartibini tushuntiring.	
8.	Ta'limni tashkil etish shakllari.	1. Ta'limni tashkil etish shakllari haqida tushuncha. 2. Dars va unga qo'yiladigan talablar. 3. Dars turlari va tarkibiy qismlari.	4
9.	O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholash.	1. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashni tarbiyaviy- ta'limiy mohiyatini yoritish. 2. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning haqqoniyligi, ishonchliligi va obyektivligini ta'minlash yo'l-yo'riqlari. 3. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish turlarini qiyosiy tahlil qiling. 4. O'quvchilar bilimini reyting asosida baholashning tartibini ishlab chiqing.	4
10.	Maktabni boshqarish va unga rahbarlik qilish.	1. Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning asosiy yo'nalishlarini izohlang. 2. Maktabning ichki boshqarishi haqida tushuncha bering. 4. Maktab direktorining vakolatlarini izohlang. 5. Xorijiy davlatlarda xalq ta'limi tizimini o'rganing va tahlil qiling. 6. Xalq ta'limi muassasalarini kollegial boshqarish tartibini o'rganing.	2
Jami			30

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI MAVZULARI

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning pedagogika fani rivojidadagi o'rnini.
2. Barkamol avlod kamoloti xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar
3. Axloqiy tarbiya
4. Nafosat va jismoniy tarbiya
5. Maktabda ta'limning mazmuni
6. Ta'lim metodlari va vositalari
7. Ta'limni yo'lga qo'yishning shakllari
8. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari T.1998
2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997
3. Barkamol avlod orzusi. T. 1999
4. Munavvarov A.K. – “Pedagogika”, T., “O'qituvchi” 1996
5. Mavlanova R.A., Turayeva O.T., Holikberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999
6. Tursunov I., Nishonaliyev U., Pedagogika kursi, T.,1992
7. S.P.Baranov, L.Bolotina, V.A.Slasyonin, Pedagogika, 1990

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 1992
2. N. G'aybullayev va boshqalar, Ijtimoiy islohotlar va ta'lim tarbiya, T., 1995
3. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim - tarbiya haqida T.1992 y.
4. A.Avloniy . Turkiy guliston yoxud axloq. T.,1996
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T., 1999

FAN BO'YICHA REYTING ISHLANMASI VA BAHOLASH MEZONI

T-r	<i>Bajariladigan ish mazmuni</i>	Ish soni	Ball
	I. Joriy baholash (JB) (55 %)55 ball		
1.	Og'zaki javob	12 x 1	12 ball.
2.	Yozma topshiriq	12 x 1	12 ball.
3.	Amaliy ishlar	10 x 1	10 ball.
4.	Laboratoriya ishlari	6 x 1	6 ball
5.	Mustaqil ishlar	5 x 5	25 ball
	II. Oraliq baholash (OB) (30 %) 30 ball		
1.	Mo'ljallangan muddatda o'tilgan mavzular yuzasidan yozma yoki test tekshiruvidan o'tkazish.	2 x 10 ball	20 ball.
2.	Referat	2 x 5 ball	10 ball
	III. Yakuniy baholash. (YaB) (15 %) 15 ball		

1.	Fan bo'yicha barcha mavzularning mazmunini qamrab olgan yozma topshiriq variantlari asosida nazorat tekshiruvi o'tkazish.	1x 10	10 ball.
2.	Og'zaki so'rov	1x 5	5 ball

Baholash mezon: Maksimal ball - 100 ball.

O'tish bali - 55 ball.

«A`lo» - 86 dan 100 gacha (86-100%)

«Yaxshi» - 71 dan 85,9 gacha (71-85%)

«Qoniqarli» - 56 dan 70,9 gacha (56-70%)

«Qoniqarsiz» - 55 % dan past.

Eslatma: 55 % dan kam ball to'plagan talabalar YaB ga qo'yilmaydi.
yakuniy nazoratga kirish bali - 55 ball.

1. Joriy baholash bo'yicha: jami 55 ball ajratiladi

- 1.1. Og'zaki so'rov 12 marta o'tkazilib, har bir so'rov uchun 1 balldan ajratilgan. Mavzuga ajratilgan materialning mazmunini to'liq ifodalab bergan talabaga 1 ball, ba'zi xatolarga yo'l qo'ysa 0,7-0,9 ball, boshqa hollarda 0,6 ballgacha beriladi.
- 1.2. Yozma topshiriqlar har bir mavzu yuzasidan 12 marta baholanadi. Har bir topshiriqqa 1 ball beriladi. Talaba qo'shimcha adabiyotlardan, Internet ma'lumotlaridan foydalanib, yozma topshiriqni bajarsa, ma'ruzani konspektlashtirsa 1 ball qo'yiladi. Topshiriq to'liq bajarilmasa 0,5-0,9 ball oralig'ida, boshqa hollarda 0,5 ballgacha qo'yiladi.
- 1.3. Amaliy mashg'ulotlar 10 marta o'tkazilib, har mashg'ulotga 1 ball beriladi. Ma'ruzada tushuntirib o'tilgan nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirib, amalda ifodalab, bajarib ko'rsata olgan talabaga 0,8-1 ball qo'yiladi. Boshqa hollarda bajarilish saviyasiga qarab 0,7 ballgacha beriladi.
- 1.4. Laboratoriya ishlari kafedrada ishlab chiqilgan namunalar asosida, aniq mavzulardan bajariladi. Jami 6 ta mavzudan bajarilgan 6 ta topshiriq yuzasidan baholanadi. Har bir topshiriqqa 1 ball beriladi. To'la bajargan

talabaga 1 ball, to'la bajarmagan talabaga bajarilgan ish hajmiga nisbatan 0,8 ballgacha qo'yiladi.

- 1.5. Mustaqil ishlar maxsus ishlab chiqilgan mustaqil ish topshiriqlari to'plamida ko'rsatilgan mavzular yuzasidan bajariladi. Jami uchta mustaqil ish topshirig'i bajarilib, har bir topshiriq 5 ballgacha mustaqil ishlar to'plamida ko'rsatilgan bandlar bo'yicha baholanadi. Agar biror band bajarilmasa shu bandga ajratilgan ball qo'yilmaydi. Topshiriqni to'liq bajargan talabaga 5 ball, aks hollarda 1-4 ball oralig'ida ishning hajmi va sifatiga qarab baholanadi.
2. Oraliq baholash bo'yicha: jami 30 ball ajratiladi.
- 2.1. Mo'ljallangan muddatda, mo'ljallangan mavzular yuzasidan ikki marta yozma ish o'tkazilib, variant asosida beshta savolga javob yozishi talab qilinadi. Har bir savolga 2 balldan, bitta yozma ishga 10 ball beriladi. Jami ikkita yozma ish uchun 20 ball ajratiladi.
- 2.2. Mustaqil ishlar to'plamida keltirilgan ikkita mavzu yuzasidan mustaqil ish bajariladi. Jami ikkita mustaqil ish topshirig'i bajarilib, har bir topshiriq 5 ballgacha mustaqil ishlar to'plamida ko'rsatilgan bandlar bo'yicha baholanadi. Agar biror band bajarilmasa shu bandga ajratilgan ball qo'yilmaydi. Ikkita mustaqil ish topshirig'i uchun 10 ball ajratiladi.
3. Yakuniy baholash bo'yicha: jami 15 ball beriladi.
- 3.1. Yakuniy baholashda fan bo'yicha o'tilgan barcha mavzularning mazmunini qamrab olgan yozma topshiriq variantlari asosida yozma ish o'tkaziladi. Variantning har bitta savoli uchun 3 balldan, jami yakuniy nazoratga 15 ball ajratiladi. Savolning mohiyatini to'liq ochib bergan, aniq faktlar bilan dalillab bergan talabaga 3 ball, javob to'liq yoritilmagan bo'lsada, asosiy fikrlar ifodalab berilsa 2 ball, qoniqarli javob uchun 1 ball beriladi. Aks hollarda 0,8 ballgacha qo'yiladi. Savolga javob berilmasa 0 ball qo'yiladi. Yakuniy baholashda yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 55 % ini, ya'ni 8 ball to'play olmagan talaba yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

Talabani umumiy bali hisoblanganda yaxlitlab olinadi.

MA`RUZALAR KURSI

1-MAVZU: PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, ASOSIY TUSHUNCHALARI

Asosiy savollar:

1. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi.
3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari.
4. Pedagogikaning metodologik asosi.
5. Pedagogika fanining tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: ijtimoiy tarixiy tajriba, barkamol avlod, ta'lim-tarbiya, obyekt va predmet, pedagogika, pedagog; mazmun, maqsad, qonun-qoida, shakl va usullar, nazariya va amaliyot, kategoriya, tushuncha, ma'lumot, ta'lim, tarbiya, rivojlanish; metodologik asos, pedagogik fanlari tizimi; ilmiy-tadqiqot usullari va hakoza. Metod, ilmiy-tadqiqot metodi, metodologiya, ilmiy kashfiyot, ilmiy faraz, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, ijodiy ishlarni o'rganish, maktab va arxiv hujjatlarini o'rganish, anketa va testlar, matematika-kibernetika, statistika, ilmiy-tadqiqot natijasi.

Mavzuga oid muammolar:

1. Pedagogika faniga turlicha ta'riflar berilgan. «Pedagogika tarbiya haqidagi fandir»-degan ta'rif ko'p uchraydi. Siz shu qoidaga qo'shilasizmi yoki qo'shilmaysizmi? Sizningcha qanday ta'rifni pedagogika fani uchun ma'qul deb sanaysiz? Nima sababdan shunday xulosaga kelganingizni izohlang.
2. Pedagogika fanining maqsadi, vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti orasidagi bog'lanishni o'ziga xoslik tomonlarini aniqlang. Tasavvuringizda hosil bo'lgan tushunchalarni o'qituvchilik kasbiga qiyoslang. Pedagogika fanining qamrovi va ko'lamini yozma tahlil qiling.
3. Pedagogika juda ko'p asrlar davomida falsafa fanining bir qismi sifatida rivojlanib kelgan. Alohida fan sifatida falsafadan ajralib chiqishini olimlar turlicha izohlaydilar. Ayrimlar Yan Amos Komenskiyning ta'limotidan keyin desalar, boshqalar K.Ushinskiydan keyin deb hisoblaydilar. Yana bir toifa olimlar esa Jon Dyui ta'limotini ko'rsatadilar. Hatto sho'rolar tuzumi davrida pedagogika alohida fanga aylangan deguvchilar ham bor. Siz qaysi bir ta'limot yoki qaysi davrga kelib pedagogika o'zi alohida fan bo'lib taraqqiy etdi deb hisoblaysiz?
4. Pedagogika fanining metodologik asoslari mavjud bo'lib, unga asoslangan holda rivojlanadi, ilmiy tadqiqotlar olib boriladi, kashfiyotlar qilinadi, hayotga tatbiq etiladi. Agar metodologik asos o'zgarsa, fanda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi? Yoki oldingidek o'zgarishsiz rivojlanib ketaveradimi?
5. Ilm-fan paydo bo'libdiki, u o'sib, rivojlanib kelmoqda. Bu taraqqiyot har bir fanning o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ro'yobga chiqadi. Pedagogika fanining taraqqiyoti qanday ilmiy-tadqiqot metodlari natijasida rivojlangan deb hisoblaysiz? Ilmiy-tadqiqot metodlarini sanab chiqing. Ularni ahamiyatiga qarab joylashtiring. Bir paytda bir necha metoddan foydalanib tadqiqot olib borish mumkinmi? Fikringizni asoslang.

1 – savol bo'yicha darsning maqsadi:

1. Pedagogika fani haqida tushuncha berish.
2. Pedagogikaning predmeti, maqsad va vazifalarini tushuntirish.
3. Fanni o'rganishga nisbatan talabalarda qiziqish hosil qilish.
4. Talabalarda tarbiya ijtimoiy hayot zarurati ekanligiga ishonch hosil etish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Pedagogika fanining mohiyatini tushuntiradi.

2. Pedagogikaning predmetini tavsiflaydi.
3. Pedagogikaning maqsadini izohlaydi.
4. Pedagogikaning vazifalarini umumlashtiradi.

1 – savolning bayoni:

«Pedagogika» atamasi «Payne» – «bola» va «agogein» -«yetaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «paydagogos» so'zlaridan paydo bo'lgan. Eramizdan oldingi III-IV asrlarda qadimgi Gretsiyada, quldorning bolasini ovqatlantiradigan, sayrga olib boruvchi, tabiat qo'ynida o'ynatuvchi tarbiyachi – qullar «pedagog» deb atalgan. U bolaning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan, bolani maktabga yetaklab borgan va olib kelgan. Maktabda ishlovchi o'qituvchilarni «didaskalar» (didayko – men o'qitaman) deyishgan.

Keyinchalik pedagog deb maxsus tayyorlangan, pedagogik faoliyat ular uchun kasb bo'lgan kishilarni atashgan.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, tashkil etish shakllari hamda usullari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi. Bugungi kunda pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonun - qoidalari va amalga oshirish yo'llarini o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandır.

Kishi pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganishi lozim, uni nafaqat bilish, balki amalda qo'llay olishi ham kerak. Bunda tarbiyachining beg'araz mehnati, bolalarni sevishi va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

Tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa, pedagoglik ishini o'ziga kasb qilib olgan kishilar mazkur fanni chuqur va puxta bilishlari shart. Aks holda katta xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin.

O'zbek pedagogikasining vazifasi respublikamizda yashovchi turli millat- elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berishdir.

Nazorat savollar:

1. Ta'lim-tarbiyaning hayotiy zarurat ekanligining asosiy sabablari nimada? Javobingizni izohlang.
2. Qaysi davrga kelib O'zbekistonda ta'lim-tarbiya ravnaq topdi? Javobingizni izohlang.
3. Pedagogikaga berilgan ta'riflarni tahlil qiling.
4. Pedagogikaning predmeti deganda nimani tushunasiz? Javobingizni izohlang.
5. Pedagogikaning hozirgi sharoitdagi holatini aniqlang.
6. Pedagogika, pedagog, muallim, ustoz, murabbiy, tarbiyachi tushunchalari orasidagi bog'liqlikni aniqlang va javobingizni izohlang.

2 – savol bo'yicha darsning maqsadi: pedagogikaning fan sifatida shakllanishini talabalarga tushuntirish, talabalarda pedagogika faniga nisbatan qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 2.1. Pedagogikaning fan sifatida shakllanishini tushuntiradi.
- 2.2. Pedagogikaning fan sifatida rivojlanish bosqichlarini izohlaydi.
- 2.3. Pedagogikaning taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlarning ta'limotlarini umumlashtiradi

2 – savolning bayoni:

Haqiqatdan ham bola dunyoga kelar ekan, o'z zamonasining jamiyat rivojlanganlik darajasiga ko'tarilishi, oldida turgan ijtimoiy tarixiy tajribalarni egallashi, hayotda o'z o'rnini topishi, milliy taraqqiyotda faol ishtirok etishi, boshqacha qilib aytganda ta'lim-tarbiya olishi zarur. Kelajak–yoshlarniki. O'zbekistonning har tomonlama taraqqiy etishi ko'p jihatdan yoshlarga, ularning barkamol avlod bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga davlatimiz, xalqimiz, har bir ota-ona, o'qituvchi va tarbiyachilar jiddiy e'tibor berishlari lozim bo'lmoqda.

Aslini aytganda, ta'lim-tarbiya kishilik jamiyati paydo bo'lganidan buyon mavjuddir. Ibtidoiy jamoa davrida ta'lim-tarbiya umumning ishi hisoblangan. Yashash uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni qo'lga kiritish jarayonida yosh avlodga to'plangan ko'nikma va malakalar berib borilgan: o'g'il bolalar juda erta erkaklar bilan har xil ovlarga borishar edi, qizlar oziq-ovqat tayyorlashga, idish-tovoq, qoplar tayyorlashga yordam berar edilar. Tarbiya bevosita mehnat bilan bog'liq holda berib borilgan.

Quldorchilik davriga kelib quldorning bolasiga beriladigan tarbiya bilan qulning bolasiga beriladigan tarbiya o'rtasida tafovut vujudga keldi. Bu davrga kelib ta'lim-tarbiyaning amal topishini belgilaydigan qonun-qoidalar, urf-odatlar tizimi shakllandi va taraqqiy etdi. O'qituvchi-tarbiyachi faoliyati bilan shug'ullanuvchi kasb egalari, maktablar paydo bo'la boshladi.

Feodalizm jamiyati davriga kelib ta'lim-tarbiya mazmuni hayotda alohida yuqori darajaga erishdi. Dehqonchilik, chorvachilik, katta-katta yer maydonlarini boshqarish ko'plab bilim talab eta boshladi. Ilm-fan, madaniyat, san'at taraqqiy etdi, vujudga keldi. Ayniqsa islom dinining kirib kelishi jamiyatning ma'naviy hayotida tub o'zgarish yasadi. Bu orada o'zbek xalq pedagogikasi shakllandi va o'z tarbiyaviy vazifasini o'tadi. O'sha davr ta'lim-tarbiyasi ta'siri ostida Markaziy Osiyoda al-Xorazmiy, Beruniy, al-Farobiy, Ibn Sino, al-Buxoriy kabi ko'plab allomalar yetishib chiqdilarki, ularni aytib ado qilib bo'lmaydi.

Qizil imperiya davrida ta'lim-tarbiya mazmuni hayotimizda o'ziga xos xarakterga ega bo'ldi. Bu davrda biz eng muhimi milliy mafkura, ma'naviy qadriyat, urf-odatlarimizdan uzilib qoldik. 70 yillik mutelik oqibatida ta'lim-tarbiyadagi milliylikka putur yetdi.

Bugungi kunga kelib esa barcha qadriyatlarimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy ta'limiy-tarbiyaviy tajribalarimiz qayta tiklandi. Mustaqil O'zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri–yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya hayotning ajralmas bir qismi, u ijtimoiy- tarixiy zarurat sifatida paydo bo'lgan, bor va bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. Pedagogika fanining predmeti nima?
2. «Pedagogika» so'zining ilk manosi?
3. Bugungi kunda pedagogika nimalarni o'rganuvchi fan?
4. Dastlabki pedagogik g'oyalar nimalarda ifodalangan?
5. Pedagogikaning fan sifatidagi taraqqiyotini davrlashtiring.
6. Xalq og'zaki ijodi namunalarining qaysilarida pedagogik g'oyalar kuchli aks etgan? Namunalar keltiring.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: talabalarni pedagogikaning asosiy kategoriyalari bilan yaqindan tanishtirish, ularni bir-biridan farqlashga o'rgatish, talabalarni o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kategoriyalar haqida umumiy tasavvurlarini bayon etadilar.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalarini sanab o'tadilar.
3. Asosiy kategoriyalarni bir-biridan farqlaydilar.
4. Asosiy kategoriyalarni tavsiflaydi.

3-savolning bayoni:

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga "ta'lim", "tarbiya", "ma'lumot", "rivojlantirish" kabi tushunchalar kiradi, ular bir-birini to'ldiradi. Bulardan tashqari, "o'quvchi", "o'qituvchi", "usul", "qoida", "jamo'a", "intizom", "irsiyat", "muhit", "direktor" va hokozo kabi tushunchalar mavjudki, bular haqida alohida mavzularda so'z yuritamiz.

Ma'lumot – bu insoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'zlashtirish natijasidir. U asosan rejali ta'lim-tarbiya va boshqa yo'llar bilan olinadi. Ma'lumot to'liq olib bo'lingach kishiga tegishli hujjat beriladi: guvohnoma, diplom, sertifikat va hokozo.

Ta'lim – bu maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida amalga oshiriladigan ma'lumot berish jarayonidir. Bu jarayonda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, ularning qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Tarbiya – bu milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifat va insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

Rivojlanish – bu shaxsning jismoniy va ma'naviy kamolga yetishida ketma-ket harakati, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'tib borishidir.

Nazorat savollar:

1. Kategoriya deganda nimani tushunasiz? Javobingizni izohlang.
2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
3. Fanning asosiy tushunchalari nimani ifodalaydi?
4. Pedagogik tushunchalarning ro'yxatini tuzing. Unga asoslanib o'qituvchilik kasbi haqidagi fikr-mulohazalaringizni yozma bayon eting.

4 – savol bo'yicha darsning maqsadi: metodologiyaning mohiyati va fan uchun ahamiyatini tushuntirish, bilim asoslarini chuqur egallashga qiziqish hosil qilish, ilmiy-nazariy bilimlar asosida metodologik madaniyatni egallashga yo'naltirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fanning metodologik asosi haqidagi tushunchalarning mohiyatini so'zlab beradi.
2. Pedagogika fani uchun metodologik asos bo'ladigan ta'limotlarni tavsiflaydi.
3. Pedagogika fanining taraqqiyotida metodologiyaning ahamiyatini asoslaydi.

4- savolning bayoni.

Inson aql –zakovati bilan yaratilgan barcha fanlar ma'lum bir ta'limotlarga suyanadi. Fan uchun ilmiy-nazariy asos, tayanch bo'ladigan ta'limot shu fanning metodologik asosi hisoblanadi. Boshqa fanlar singari pedagogika fani ham paydo bo'libdiki, har doim o'zining metodologik asosiga amal qilib keladi. Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafaning negizida paydo bo'lgan. Ba'zi bir falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlangan. Shu sababli pedagogikaning metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Professor Q.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, o'zbek milliy pedagogikasi uchun islom falsafasi metodologik asos vazifasini o'taydi.

Hozirgi sharoitda pedagogika uchun «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham ilmiy-nazariy asos bo'la oladi.

Nazorat savollar:

1. Metodologiya qanday ta'limot?
2. Pedagogika qaysi fan tarkibida shakllangan?
3. Pedagogikaning metodologik asoslaridan birini izohlang.
4. Fanning taraqqiyotida metodologik asosning ahamiyatini tahlil qiling.
5. Ilmiy-tadqiqodlar olib borishda metodologiyaning ahamiyatini tushuntiring.
6. Ta'lim jarayonida metodologiyaning ahamiyatini tushuntiring.

5- savol bo'yicha darsning maqsadi: pedagogika fanlar tizimiga kiruvchi sohalar va pedagogika bilan mustahkam aloqada bo'ladigan fanlar to'g'risida talablarga tushuncha berish, talabalarning dunyoqarashini boyitish, jamiyatdagi turli toifa kishilarining qadrini his qilishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Pedagogikaning qaysi fanlar bilan aloqasi borligini sanab o'tadilar.
2. Pedagogikaning metodologik asosini tashkil etuvchi fanga izoh beradilar.
3. Pedagogika fanini tarmoqlarga ajratadilar.

4. Pedagogika fanining mavzu bahslariga aniqlik kiritadilar.

5 – savolning bayoni:

Pedagogika fani falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan doim aloqadordir. O'qituvchi – tarbiyachi bu fanlarni bilmay turib ish ko'rishi mumkin emas. Falsafa pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi. Etika, estetika fanlari esa pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi.

Tarix, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarni ham o'qituvchi bilmasligi mumkin emas. Pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, maktab gigiyenasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada chambarchas bog'liq.

Pedagogika fani obyekti asta sekin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari bir necha guruhlariga ajratilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb ataladi.

Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo'lingan.

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi - maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi;

2. Maktab pedagogikasi - maktab yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi

3. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi

4. Oliy ta'lim pedagogikasi - talabalarga kasbiy ta'lim va tarbiya berish muammolari bilan shug'ullanadi

5. Harbiy pedagogika

6. Pedagogika tarixi

7. Fanlarni o'qitish metodikasi

8. Oila pedagogikasi

9. Maxsus pedagogika.

Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday tarmoqlarni **maxsus pedagogika** deb yuritiladi.

1. Maxsus pedagogika tuzilishiga: oligofreno-pedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish); "tiflo-pedagogika" (ko'r bolalarni tarbiyalash); surdo-pedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash)da gogopediya kabi fanlar kiradi.

Nazorat savollar:

1. Pedagogika qanday fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi?

2. Falsafa – pedagogikaning metodologik asosi ekanligini izohlab bering.

3. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?

4. Maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagogika haqida tushuncha bering.

5. Oligofreno pedagogikasi qanday qusuri bo'lgan o'quvchilar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadi?

6. Pedagogika fanlari tizimining yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyatini tavsiflang.

7. Pedagogika qanday fanlar bilan bog'langan? Javobingizni izohlang.

8. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?

6-savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga fanning rivojlanishida ilmiy-tadqiqot metodlarining ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Pedagogik tadqiqot metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlar olib borishga qiziqishlar hosil qilish. Mustaqil ish, referat va kurs ishi yozishda ayrim pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. *Metod tushunchasining mohiyatini aytib beradi.*

2. *Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini tahlil qiladi.*

3. *Ayrim ilmiy-tadqiqot metodlarini tatbiq etadi.*

6 – savolning bayoni:

Insonlar hayot faoliyatlari davomida xilma-xil vazifalarni bajaradi. Nima bilan shug'ullanmasin, uni ma'lum bir usullar, yo'llar orqali amalga oshiradi.

Qadimgi Yunonistonda har qanday ishni bajarishning yo'l va usullarini metod deb ataganlar. Metod ma'lum bir faoliyat to'rini bajarishning yo'l va usullarini anglatadi.

Ilm-fan paydo bo'libdiki, u o'sib, rivojlanib kelmoqda. Bu taraqqiyot har bir fanning o'ziga xos ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ro'yobga chiqadi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari ma'lum darajada fanning metodologik asoslariga ham bog'liq bo'ladi.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullar bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish yo'llari, uslublari va vositalari majmuini tushunamiz.

Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganishni ma'qrllaydi:

- 1) *Ularning umumiy aloqasi bir-birini taqozo etishi va o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish va tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at, ta'lim va tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, uzviy bog'lanishda bo'lishi;*
- 2) *Ularning taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish va tarbiyalash vazifalari, shakllari, usullarining o'zgarishi, amalga oshirishning murakkabligi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish, tarbiyalash mumkin emasligi;*
- 3) *Bolalarning o'sishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;*

- 4) *Bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular o'rtasidagi tafovutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, jamoa o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid, va h.k.*
- 5) *Falsafiy kategoriyalar – hodisa va mohiyat, sabab va natija, zarurat va tasodif, mazmun va shakl, imkoniyat va haqqoniyat, tarixiy va mantiqiy, umumiy va xususiy kabilarni bilish va ularni pedagogika fani taraqqiyoti nuqtai nazaridan talqin qila olish va h.k.*

Nazorat savollar:

1. Metod tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiling.
3. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining ta'lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.
4. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan metodlar tizimini so'zlab bering.
5. O'quvchi shaxsini o'rganish uchun so'rovnoma (anketa) tayyorlang va uni o'z maktabingizda to'ldirib natijalarini umumlashtiring.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Turli ijtimoiy davrlarda ta'lim-tarbiya mazmuni qanday bo'lganini tavsiflang.
2. Pedagogika fanining obyekti va predmetiga aniqlik kiriting.
3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalaridagi uzviy aloqadorlikni asoslab bering.
4. Pedagogikaning turli tarmoqlariga tavsif bering.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot usullarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llab ko'ring.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari ta'lim -tarbiya tushuncha beradi.
2. pedagogikaning fan sifatida shakllanishi haqida buyuk alomalarining ilmiy asarlari izoh beradi.
3. Pedagogikaning asosiy tushunchalari ma'lumot, ta'lim, tarbiya, rivojlanish haqida tushuncha beradi.
4. Pedagogika fan ilmiy-nazariy asosi shu metod hisobladi.
5. Pedagogika fanining tizimi va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida tushuncha beradi.
6. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari orqali tushuncha beradi.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.
2. Oila pedagogikasining ilmiy va nazariy asoslarini ishlab chiqish.
3. Pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta'limotlarini ilmiy tahlil etish.
4. Talabalarda pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.

2- Mavzu : O'zbekistonda ta'lim tizimining taraqqiyoti.

Asosiy savollar

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmuni.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mantiqiy davomi sifatida.
4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymati.
5. O'zbekistonda ta'lim tizimi barkamol shaxs tarbiyalashning omilidir.

Tayanch ibora va tushunchalar

« Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, uzluksiz ta'lim tizimi, ta'lim turlari, ijtimoiy himoyalash, ta'lim standartlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, huquqiy maqom, atestatsiya, akkreditatsiya, nodavlat ta'lim muassasasi, bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktorantura, davlat granti, Respublika byudjeti, mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari jamg'arma, ta'limni taraqqiy ettirish fondi, milliy model, shaxs, davlat va jamiyat, umumiy va o'rta ta'lim, intellektual rivojlanish, dissertatsiya, fan nomzodi, fan doktori, malaka oshirish, monitoring, tashkilot, moliyalash, yaxlit axborot makoni, axborot texnologiyasi, marketing.

Mavzuga oid muammolar:

1. O'zbekiston milliy istiqbolga erishgandan keyin 1992 yil iyul oyida birinchi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 1997 yilga kelib talabga javob bermay qoldi. Nima sababdan qonun shunchalik tez «eskirdi»? Uzoq muddatga mo'ljallab ishlab chiqilsa bo'lmasmidi?
2. 1997 yil avgustida «Ta'lim to'g'risida»gi yangi qonun qabul qilindi. Qonun bilan birga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham ishlab chiqildi. Bu ikki hujjatni ishlab chiqilishida qanday ma'no bor. Sizningcha bu hujjatlar O'zbekistonda ta'lim taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi, pedagogika rivojigachi?
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilgan. Unda - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritishi qayd etilgan. Milliy modelning bu 5 komponentlari orasidagi bog'lanishni izohlang. Chizma holiga keltiring. Agar ahamiyatiga ko'ra qayta joylashtiring deyilsa qanday tartibda joylashtirgan bo'lar edingiz?.
4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi sakkiz yildan beri hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Erishilgan natijalar juda yuqori.

Yanada samarali bo'lishi uchun ta'lim sohasida qanday o'zgarishlar qilishni ma'qullagan bo'lar edingiz?

5. Barkamol shaxs kamol topishiga va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni solishtiring va ular o'rtasida bog'liqlik, farq va o'xshashlikni aniqlang. Sizning nazaringizda qaysi omilning ta'siri shaxs kamolotiga kuchliroq bo'ladi, biror omilni kuchliroq deyish mumkinmi?

1- savol bo'yicha darsning maqsadi: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi va dolzarbligini talabalarga tushuntirish, ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligini tushuntiradi.

2.« Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi va dolzarbligini asoslab beradi.

1- savol bayoni

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng jamiyat taraqqiyotida qonun ustuvorligiga alohida e'tibor bera boshlandi. Demokratiya va insonparvarlik tamoyillariga har tomonlama mos bo'lgan Konstitutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unga suyanagan holda 1997 yilning avgustida Oliy Majlisning IX sessiyasida «Ta'lim to'g'risida»gi va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur qabul qilindi.

Bu hujjatlar bir qaraganda mamlakatimizda maorif ishlarini tartibga solish, ma'lum bir muddat davomida uning rivojlanishini ta'minlash maqsadiga qaratilgandek tuyuladi. Aslida esa ularning mohiyatiga chuqur ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy maqsad va vazifalar kiritilgan bo'lib, yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining o'ziga xos modeli ishlab chiqilgan.

Mazkur qonunlarning hayotga tatbiq etilishi xalq xo'jaligining barcha sohalarini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Chunki bu qonunlar jamiyatning har bir a'zosiga qobiliyati, qiziqish va intilishlariga mos bo'lgan ta'lim-tarbiya berish, shaxsiy sifatlarni to'la tarkib toptirish hamda namoyon etish imkonini yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha kishilarga mos bo'lgan ta'limni olishi, kasb egallashi, uni takomillashtirib borishlariga to'la sharoit yaratishga mo'ljallangan.

Nazorat savollar:

1.« Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dastur»i nechanchi yil va qayerda qabul qilindi?

2. « Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qonunlarining hayotga tatbiq etilishi qanday ahamiyatga ega?

3. «Ta'lim to'g'risida»gi va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qonunlarning mohiyatini tushuntiring.

4. «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning mohiyatini izohlang.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini talabalarga tushuntirish, qonunni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otish, «Ta'lim to'g'risida»gi qonundagi bo'lim va moddalarni tahlil qilish .

Identiv o'quv maqsadlari :

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini aytib beradi
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mazmunini asoslab beradi.
3. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni tahlil qiladi.

2- savol bayoni

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1 - chaqiriq 9 sessiyasida 1997 yil 29 avgustida tasdiqlangan qonun 5 bo'lim, 34 moddadan iborat.

- 1. Umumiy qoidalar.**
- 2. Ta'lim tizimi va turlari.**
- 3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish.**
- 4. Ta'lim tizimini boshqarish.**
- 5. Yakunlovchi qoidalar.**

1. Umumiy qoidalar: Bu bo'limda mazkur qonunning maqsadi, qonun hujjatlari, xalqaro shartnomaga amal qilish yo'llari, davlat siyosatining ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillari prinsiplari), ma'lumot olish huquqlari, pedagogik faoliyat yuritish huquqi, ta'limiy muassasalarning huquqiy maqomlari, davlatning ta'lim to'g'risidagi standartlari va ta'limni qanday tilda olish kabi holatlar ko'rsatilgan.

2. Ta'lim tizimi va turlari: O'zbekistonda ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi. Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi, ilmiy pedagogik muassasalar va boshqarish tashkilotlari hamda ularning joylardagi bo'linmalaridan iborat bo'ladi.

- O'zbekistonda ta'lim tizimi yaxlit va uzluksizdir.
- Ta'limning quyidagi turlari mavjud:
 - maktabgacha ta'lim: (6-7 yoshgacha);
 - o'rta umumiy ta'lim: (boshlang'ich 1-4, o'rta umumiy 1-9 sinf);
 - o'rta maxsus kasb ta'limi: (3 yillik akademik litsey, kasb hunar kolleji);
 - oliy ta'lim (bakalavr 4 yil, magistratura-2 yil);
 - oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim (aspirantura, doktorantura, ad'yunktura, ilmiy tadqiqotchi);
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim. (yoshlar ijodiy saroylari, uylari, klublar, markazlar, jismoniy tarbiya va sport maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog'lomlashtirish oromgohlari); Bulardan tashqari oila ta'limi va mustaqil ta'lim shakllari ham davlat tomonidan qo'llab quvvatlanadi.

Akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarini bitirganlar uchun davlat tartibidagi hujjatlar beriladi. (guvohnoma, diplom, sertifikat, yorliq)

3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoyalash:

O'quvchilarni ijtimoiy himoyalash maqsadida imtiyozlarini belgilovchi maxsus qonuniy hujjatlar bilan bir qatorda, nafaqa, yotoqxonalar berish mo'ljallangan.

Ta'lim sohasidagi xizmatchilar quyidagicha himoyalanadi:

Qisqartirilgan ish vaqti, o'quv yili so'ngida uzaytirilgan mehnat ta'tili, qonun asosidagi imtiyozlar (energiya vositalariga 50% haq to'lash, turar joylarni xususiylashtirish va h.k.) xizmatchini rag'batlantirish uchun imkoniyat darajasida qo'shimcha ish haqi to'lash mumkin.

Yetim va qarovsiz qolgan bolalar to'la davlat hisobidan ta'lim tarbiya olish huquqiga egadirlar.

Jismoniy va ruhiy kamoloti izdan chiqqan yoshlarni tarbiyalash uchun maxsus o'quv muassasalari tashkil etiladi. Ularga qabul qilish va qaytarish maxsus ruhiy tibbiy pedagogik komissiya tomonidan yo'lga qo'yiladi. Maxsus o'quv muassasalari qisman yoki to'la davlat ta'minotida bo'ladi.

4. Ta'lim tizimini boshqarish: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi ta'lim sohasidagi yaxlit davlat siyosatini amalga oshiradi. Ta'limga rahbarlik qiluvchi davlat tashkilotlarini boshqaradi. Ta'limni rivojlantirishning dasturlarini ishlab chiqadi va amalga tatbiq etadi. Ta'lim muassasalarini ochish, o'zgartirish va yopishning tartibini ishlab chiqadi va bajaradi.

5. Yakuniy qoidalar: Ota-onalar yoki qonun bo'yicha vakillarining vazifalari ta'limni mablag' bilan ta'minlash respublika va mahalliy byudjet (sarmoya) hamda byudjetdan tashqari jamg'armalar asosida bo'ladi. Ta'limni taraqqiy ettirish fondi ixtiyoriy to'lovlar aro (yuridik va jismoniy shaxslarning) asosida bo'ladi. Ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlik imkoniyatlariga ega bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri ta'limiy muammolarni hal etish bo'yicha aloqalar o'rnatish mumkin. Qonunga mos holda birgalikda muassasalar ochish huquqi berilgan. Ta'lim qonunini buzgan shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Nazorat savollar:

1. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun necha bo'lim va moddadan iborat?
2. Ta'lim turlarini aniqlang va tushuntiring.
3. Oliy ta'lim bosqichlari haqida tushuncha bering.
4. Ta'lim tizimi qanday boshqariladi?
5. Ota-onalar yoki qonun bo'yicha vakillarning vazifalarini yozma ravishda izohlab bering.
6. «Ta'lim to'g'risida» gi qonunda belgilab qo'yilgan ta'lim tizimini yaxlit va uzluksizligini asoslab bering.

3- savol bo'yicha darsning maqsadi: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida ekanligini talabalarga tushuntirish, davlatimizning ta'lim sohasiga oid qonunlarini o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuning mantiqiy davomi sifatida ekanligini tushuntiradi.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mantiqiy davomi sifatida ekanligini asoslaydi.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning bugungi ta'lim tizimidagi o'rnini izohlaydi.

3- savol bayoni

Milliy dasturning maqsadi – ta'lim sohasida tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash (dasturi) milliy tizimini yaratishdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi.

Milliy dasturining maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi.

Birinchi bosqich: (1997- 2001 y.y.) -mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy, moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 y.y.) –milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real iqtisodiy ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Majburiy umumiy, o'rta va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limiga, shuningdek o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga qarab, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich. (2005-va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlashning milliy modelini asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi:

Davlat va jamiyat-ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari:

Uzluksiz ta'lim-malakali raqobatdagi kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi:

Fan - yuqori malakali mutaxassis tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi:

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Nazorat savollar:

1. O'rta maxsus, kasb hunar ta'limining bosqichlari haqida tushuncha bering.
2. Ta'limning qaysi turlari majburiy hisoblanadi?
3. Ta'limning qaysi turlari majburiy emas?
4. Mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan ta'lim muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim bu qanday ta'lim hisoblanadi? Uning mohiyatini tushuntiring.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining modelini yozma ravishda izohlab bering.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "ta'lim to'g'risida"gi qonunning mantiqiy davomi sifatida ekanligini asoslab bering.

4- savol bo'yicha darsning maqsadi: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini talabalarga tushuntirish va qonunlarning mohiyatini chuqur o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini tushuntiradi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini izohlaydi.
3. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini asoslaydi.
4. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini tahlil qiladi.

4- savol bayoni

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi pedagogika fanining asrlar davomida to'plagan boy ilmiy va nazariy ta'minotlariga tayangan holda ishlab chiqilgan. Unda jahondagi eng ilg'or pedagogik g'oyalarning mohiyati aks etgan. Chunki pedagogika fani shaxsning har tomonlama kamol topishini: aqliy, axloqiy, jismoniy va ruhiy ulgayishini tadqiq etib keladi. Ta'lim qonuni va milliy dasturda shaxs, uning jamiyatdagi o'rni, ilm-fan, ishlab chiqarish

hamda ta'lim tarbiya muassasalarining uzviy bog'liqligi chuqur ilmiy asoslangan. Hozirgi zamon sharoitida xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning tamoyillari, uzluksiz ta'lim tizimi, unga kirgan muassasalarning maqsad va vazifalari aniq belgilangan. Mazkur hujjatlar shunchalik davlatning ta'lim tarbiya sohasidagi siyosatining ifodasi bo'lib qolmasdan, aniq bajariladigan, bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etiladigan vazifalar majmui ham hisoblanadi.

Nazorat savollar:

- 1.«Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi nimalarga asoslanadi?
- 2.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida shaxs, uning jamiyatdagi o'rni, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda ta'lim-tarbiya muassasalarining uzviy bog'liqligi qanday asoslanganligini yozma ravishda izohlab bering.
- 3.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini tushuntiring.
- 4.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini sharhlab bering.
- 5.«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining nazariy va amaliy qiymatini asoslab bering.

5- savol bo'yicha darsning maqsadi: barkamol shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni talabalar ongiga yetkazish, har bir omilning o'ziga xos ahamiyatini uqtirish, o'z kamolotida qaysi omilning ta'siri kuchli ekanligini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Shaxs kamolotiga ta'sir etadigan omillarning farqini ajratadi.
2. Har bir omilning shaxs kamolotiga ta'sirini izohlaydi.
3. Ayrim kursdoshlari yoki maktab o'quvchilarining kamolot darajalarini tekshirib ko'radi.

5- savolning bayoni

Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim –tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalari asosida kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan bahramand bo'ladi. Moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishda ishtirok etadi.

Inson kamolotida irsiyatning ta'siri.

Kishi tug'ilganidanoq o'ziga xos muayyan qobiliyat nishonlari bilan dunyoga keladi. Ular insoniyatning turli jihatlarini rivojlantirishda, ayniqsa psixik jarayonlari rivojida, his – tuyg'uni izhor etish sohasida, iste'dod turida jiddiy rol o'ynaydi.

Odam irsiy axborotni va fiziologik faoliyat ko'rsatish xarakterini, nerv sistemasi tipini, oshiradigan yuksak darajadagi nafisligini bir-biridan meros qilib organizm uchun muhim hayotiy moyillar va tarkibiy ehtiyojlarning fiziologik mexanizmi irsiyatga bog'liqdir.

Inson kamolotida muhitning ta'siri.

«Muhit» tushunchasi insonning hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tashqi vaziyatlarning murakkab sistemasini anglatadi. Bu vaziyatlar jumlasiga individ hayotning tabiiy sharoitlari bilan barobar ijtimoiy sharoitlari ham kiradi. Shaxs bilan muhitning o'zaro birgalikdagi harakatida ikkita hal qiluvchi sharoitni;

- shaxs aks etadigan hayotiy vaziyatlar ta'sirining xarakterini;
- vaziyatlarni o'z ehtiyojiga va manfaatlariga bo'ysundirish

Chunki:

- ta'lim –tarbiya jarayonida kishi organizmining o'sishi va muhitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni o'rganib oladi.

- ta'lim-tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini kerakli tomonga o'zgartirish mumkin.

- ta'lim-tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

- ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinibgina qolmay, balki bolada ilmiy dunyoqarashi ham shakllanadi.

Insonning kamol topishida shaxsiy faolligining ahamiyati.

Ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi. Iste'dod, qobiliyatini o'stiradi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq ro'yobga chiqa boshlaydi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berar ekan, ularning o'z oldiga maqsad qo'yish va uni ro'yobga chiqarish, tinmay izlanish, mehnat qilish sifatlarini, iroda va qat'iyatlilikni tarbiyalab borishi kerak.

Nazorat savollar:

- 1. Shaxs kamolotining omili nimalar hisoblanadi?**
- 2. Ta'lim va tarbiyani shaxs kamolotining omili sifatida izohlab bering.**
- 3. Shaxs kamolotining asosiy omillariga nimalar kiradi?**
- 4. Tashqi qiyofa, qon aylanishi, oliy nerv faoliyati qaysi omil ta'sirida shakllanadi?**
- 5. Til o'rganishda, urf-odatlarini egallashda qaysi omilning ta'siri kuchli bo'ladi?**

Mustaqil ish topshiriqlari

- 1. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amaliy va nazariy qiymatini aniqlash.**
- 2. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini ta'lim va tarbiya to'g'risida qabul qilingan davlat hujjatlari bilan taqqoslash va tahlil qilish.**

3. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etilishini tahlil qilish.
4. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini boshqa davlatlarda qabul qilingan hujjatlar bilan taqqoslash va tahlil qilish.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. O'zbekiston Respublikasida «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asoslangan holda tayyor kadrlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga taqsimlashning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish.

3- MAVZU: Tarbiya jarayoni, qonuniyatlari va metodlari.

Asosiy savollar:

1. Tarbiya jarayoni va uning maqsad-vazifalari.
2. Tarbiya jarayonining asosiy xususiyatlari.
3. Kasbiy tarbiya va kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash.
4. Tarbiya qonuniyatlari va prinsiplari.
5. Tarbiya metodlari

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: qonun, qonuniyat, izchillik, pedagogik qonunlarning jamiyat qonunlari bilan bog'liqligi, prinsip, tarbiyaning asosiy qonuniyatlari. Tarbiya metodi, tarbiya vositasi, tarbiyaviy ta'sir shakli, tasnif, ijtimoiy ongni shakllantirish, faoliyatni tarkib toptirish, ijobiy xususiyatlarga yo'naltirish, o'z-o'zini tarbiyalash.

Mavzuga oid muammolar:

1. Tabiat qonuniyatlari, jamiyat qonuniyatlari, tarbiya qonuniyatlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'lanishda bo'ladi. Tarbiya qonuniyatlari jamiyat qonuniyatlarining mantiqiy davomidek sodir bo'ladi. Tarbiya qonuniyatlari bilan tabiat qonuniyatlari orasidagi bog'lanishni qanday tasavvur etasiz.

2. Tarbiya prinsiplariga yoshlarni tarbiyalashda amal qilinadi. Har bir prinsip tarbiyaga o'ziga xos ta'sir etadi. Ba'zan tarbiya prinsiplarini bilmaydigan, pedagogik qonun qoidalaridan bexabar kishilarning farzandlari yaxshi tarbiyalangan bo'lishadilar. Buning sababi nimada?

3. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yigindisini tarbiya metodlari deb atash mumkinmi? Yana qanday faoliyatni tarbiya metodlari deb atash mumkin?

4. Tarbiya metodlarining samarali ta'sir etishi uchun tarbiyachining yuksak mahoratidan tashqari yana nimalar e'tiborga olinadi deb o'ylaysiz?

1-savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga qonun va qonuniyat haqida tushuncha berish, tarbiyaning asosiy qonuniyatlari va prinsiplarining mohiyatini ochib berish, talabalarda tarbiyalovchilik qobiliyatini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Qonun va qonuniyat tushunchalarining mohiyatini so'zlab beradi.
2. Ijtimoiy qonuniyatlar bilan tarbiya qonuniyatlarining uzviy bog'liqligini dalillaydi.
3. Tarbiya qonuniyatlarining mazmunini sharhlab beradi.

1- savol bayoni

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi.

Qonuniyat - barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan quyidagilarni olishimiz mumkin:

Tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlariga bo'linishi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qonuniyatlari birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston milliy istiqloлга erishgandan keyin tarbiyaning jamiyat oldidagi mohiyati o'zgardi.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati uning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarining uzviy bog'liqligidir. Yoshlarga beriladigan tarbiya avvalo aniq maqsadga yo'naltirilgan, shu maqsadni ro'yobga chiqarishda tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari bir-birini to'ldirishi, takomillashtirishi kerak.

Nazorat savollar:

1. Qonuniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy qonuniyatlar bilan tarbiya qonuniyatlarining bog'liqligini hayotiy misollar keltirish yo'li bilan yozma dalillab bering.
3. Tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojga mos bo'lishi qonuni deganda nimani tushunasiz?
4. Tarbiya mazmuni, maqsadi, usullari va shakllarining bog'liqligi qonuniyatini og'zaki sharhlab bering.
5. Turli sinf o'quvchilaridan bir qancha yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini tarbiya qonuniyatlariga qanday darajada amal qilinganligini tahlil qiling.
6. Tarbiya qonuniyatlari bilan prinsiplari orasidagi bog'lanishni izohlang.
7. Tarbiya qonuniyatlariga amal qilmasdan yashagan kishilarni bilasizmi? Ularning turmush tarzi, jamoatchilik orasidagi o'rni haqida misollar keltiring.

2-savol bo'yicha dars maqsadi: talabalarga tarbiya prinsiplari va ularning mohiyatini tushuntirib berish, odobli, axloqli, xushfe'l, mehnatsevar bo'lib ulg'ayishga da'vat etish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Tarbiya prinsipi shaxs kamolotida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi.
2. Tarbiyaning har bir prinsipini sharhlaydi.
3. Tarbiya prinsiplari ta'sirini ayrim shaxslarning namunasida tahlil qiladi.

2- savol bayoni

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiya prinsiplari tarbiya qonuniyatlarining amalda tatbiq etilishi, mantiqiy davomi, aksi sifatida namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkin. Chunki tarbiya qonuniyatlariga ham, prinsiplariga ham tarbiya jarayonida amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari va printsinlariga alohida e'tibor bergan holda ish ko'rilganda tarbiyalanuvchilar barkamol shaxsga aylanadi. Shuning uchun ham tarbiya prinsiplarini chuqur ilmiy asoslash bilan birga ularni hayotga tatbiq etish o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilikning doimiy e'tiborida bo'lishi kerak. Pedagogika fanida turli olimlar tomonidan tarbiya prinsiplari har xil izohlanib kelingan. Hozirgi paytda tarbiyaning quyidagi prinsiplariga amal qilish tavsiya etiladi:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi,
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratik prinsipi,
- tarbiyaning hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi,
- tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi prinsipi.
- tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi,
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi prinsipi,
- bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik prinsipi,
- mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish prinsipi.

Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi prinsipi: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollari ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiklik prinsipi; tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi prinsipi; Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat o'quvchilarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analarga suyanagan holda ish ko'riladi.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik-tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi prinsipi; Tarbiyada izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga birdaniga juda ko'p qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bu borada izchillikka amal qilish lozim. Tarbiyaviy ta'siridagi tizimlilik faqat yoshlarnigina emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak. Tarbiyaviy ta'sirda izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini

tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiyaviy ishlar hamda tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarining hamjihat va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutish kerak.

Tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi: Tarbiya murakkab jarayon bo'lib, pedagog bu jarayonda har bir o'quvchining nafaqat yoshi, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratishi joiz.

Bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik prinsipi: Bola shaxsi hurmat qilinsagina u pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchini o'ziga qabul qiladi. O'qituvchiga nisbatan mehr uyg'onadi. Undagi bor yaxshi fazilatlarni o'zlashtiradi va bilim olish samarasi oshadi.

Mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish prinsipi: O'quvchilarda yoshlikdan mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat ko'rsata olishni shakllantirish lozim. Shunga ko'ra har bir o'quvchining qiziqishi va intilishini qo'llab quvvatlash lozim, ularni o'zlari qiziqqan kasb, hunarni egallashlariga to'g'ri yo'naltirish kerak.

Nazorat savollar:

1. Tarbiya prinsiplarining tarbiya qonuniyatlariga bog'liqligini yozma ravishda bayon eting.
2. Tarbiya prinsipi haqida tushuncha bering.
3. Bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik tarbiyaning metodimi yoki prinsipimi? Javobingizni izohlang.
4. Tarbiya prinsiplarini solishtiring va o'zaro bog'liqligini, farqini aniqlang.
5. Tarbiya prinsiplariga amal qilishni maktab, oila va jamoatchilik misolida izohlab bering.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: tasnif haqida tushuncha berish, tarbiya metodlarining asosiy toifalarini tushuntirish va yozdirish, to'la o'zlashtirishga erishish, tarbiyachilikka qiziqish hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Tarbiya metodlarini tasnif qilish tartibini izohlaydi.
2. Har bir toifaga kirgan metodlarni taqqoslab ko'radi.
3. Tarbiya metodlari tasnifi bo'yicha chizma shakl ishlab chiqadi.
4. Tarbiya metodlari toifalari orasidagi bog'lanishni aniqlaydi.

3- savolning bayoni:

Tarbiya inson hayotida muntazam amalga oshib boradigan jarayondir. Tarbiyaning samarali bo'lishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining faoliyatiga xohish-irodasiga, qanday sharoit va vositalarning ta'sirida ro'yobga chiqishiga bog'liqdir. Ayniqsa tarbiya qanday usullar bilan amalga oshirilganligi, uni berishda qanday yo'l tutilganligi nihoyatda muhimdir.

Pedagogikada tarbiya berishning yo'li va usullari «metod» deb hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida «metxos» so'zi bizning tilimizda «usul», «yo'l» degan ma'noni anglatadi.

Inson har qanday faoliyat turini o'ziga xos metodlar orqali bajaradi. Tarbiya ham inson faoliyatining ko'p qirrali va murakkab turlaridan biridir. Shuning uchun pedagogika fanida xilma –xil tarbiya metodlari jamlangan va ilmiy asoslangan.

Tarbiya metodlarini ta'riflashda har –xil yondashuvlar mavjud. Bizningcha quyidagi ta'rif uning mohiyatini aniqroq ifodalaydi. «Tarbiya metodlari –tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yigindisidir». Uning samarali ta'sir etishi uchun tarbiyachining yuksak mahoratidan tashqari, tarbiyalanuvchining yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirning muhimligi e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda tarbiyalanuvchining o'zi u yoki bu metodlardan foydalangan holda xulq –atvorini o'zgartiradi, yoki tartibga soladi. Demak, tarbiya metodlari nafaqat tarbiyachi tomonidan, tarbiyalanuvchilarning o'zlari tomonidan ham mustaqil qo'llanilishi mumkin ekan.

Tarbiya metodlari alohida, yoki bir necha metod bilan birgalikda qo'llanishi kuzatiladi. Bunda bir metod asosiy ta'sir usuli bo'lsa, boshqalari yordamchi usul vazifasini o'taydi. Yosh bolalar bilan ishlashda bu hol yaxshi natija berishi isbotlangan. Tarbiya jarayonida metodlar almashtirib turilsa, tarbiyalanuvchi uchun odatdagi holga aylanmasa uning natijasi samarali bo'ladi.

Tarbiya metodlaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun ularning ta'sirini orttiruvchi vositalar va shakllaridan ham ustalik bilan qo'llaniladi. Tarbiya vositasi sifatida xalq ogzaki ijodi namunalari, badiiy ijod, tasviriy san'at, me'morchilik, ma'naviy qadriyatlar va an'analar xizmat qiladi. Tarbiyaviy ta'sir shakli sifatida uchrashuvlar, munozaralar va muhokama, mehnat tarbiyalari, o'yinlar, marosimlar va boshqalarni hisoblash mumkin. Ayrim manbalarda bu vosita shakllarini tarbiya usuli deb ham sanashadilar.

Tarbiya metodlari juda ko'p xilma, –xil bo'lib, yoshlarni tarbiyalashda ularni to'g'ri tanlash, mohirlik bilan foydalanish hamda almashtirib turish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savollar:

1. Tarbiya metodlarini tasniflash deganda nimani tushunasiz?
2. Tarbiya metodlari tasnifi nechta toifaga bo'linadi ?
3. Bir toifaga kiruvchi metodlarning o'ziga xosligi nimada deb bilasiz?
4. Har xil metodlardan bir maqsadni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa javobingizni izohlang.
5. O'zingiz amalda foydalanib, samaraga erishgan metodlarni ayta olasizmi?

4 –savol bo'yicha darsning maqsadi: tarbiya metodlari orasidagi faoliyatni tartibga soluvchi metodlarning ahamiyatini alohida ajratgan holda tushuntirish. Yaxshi xulq – atvorga ega bo'lish haqida ishonch hosil qildiriladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.Faoliyatni tartibga soluvchi metodlar toifasiga kiradigan har bir usulga tavsif beradi.
- 2.Ayrim metodlardan foydalanish tartibini ishlab chiqadi.
- 3.Metodlarni amalda tatbiq etib ko'radi.
- 4.Ushbu metodlarning ta'sirida hosil qilingan xususiyatlarni aniqlaydi.
- 5.Komil insonni shakllantirishda bu metodlarning natijalarini ko'rsatib beradi.

4–savolning bayoni:

Insonning kim va qanday ekanligi, nimalarga qodirligi tarbiyasining qay holatda ekanligi uning faoliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham faoliyatni shakllantiruvchi tartibga solib turuvchi metodlar alohida toifani tashkil etadi. Bu metodlar orqali hayotiy ehtiyoj bo'lgan, kundalik yurish turish normalari, eng zarur fazilatlar hosil qiladi. Bu toifaga o'rgatish va odatlantirish, mashq qildirish, topshiriq, talabchanlik, jamoatchilik fikri, tarbiyalovchi holatlar yaratish kabi metodlarni kiritish mumkin.

O'rgatish va odatlantirish metodi tarbiyalanuvchilarni doimiy rejali tarzda ma'lum harakatlarni bajarib borish orqali tushuniladi.

Bu odatlar tarbiyalanuvchiga muntazam ta'sir etish orqali, shoshmasdan, bosqichma – bosqich hosil qilinadi. Olimlarning ta'kidlashicha fikr, g'oya ish harakatiga aylanadi.

O'rgatish va odatlantirish bolaning yoshiga, turmush tarziga, sharoitiga qarab qo'llaniladi. Bu metodning yaxshi natija berishi uchun tarbiyachi bola oldiga aniq vazifalar qo'yishi, ayrim insoniy fazilatlarini namayon etishga da'vat qilishi, kundalik rejimga amal qildirishi ahamiyatlidir.

Tarbiyalanuvchida salbiy odatlarning hosil bo'lib qolmasligiga e'tibor berib turish zarur.

Mashq qildirish xulq-atvor normalarini ko'p marotaba takrorlash jarayoni hisoblanadi. Bunda mashq ko'r-ko'rona bajariladigan harakatlardan iborat bo'lib qolmasdan shakllantiriladigan ma'naviy xususiyatlarning mohiyatini to'g'ri tushungan uning ahamiyatini his etgan holda amalga oshirish zarur. Shundagina yoshlar milliy va umuminsoniy axloq normalarini his etadigan hamda nafosat bilan amalga oshiradigan bo'ladi. Ma'naviy va xulqiy go'zallikning uyg'unlashuvida mashq qildirish samarali ta'sir etadi. Mashq qildirish mahoratning oshishiga katta hissa qo'shadi.

Tarbiyalanuvchilarga beriladigan topshiriqlar ularning ijtimoiy faoliyatini tarkib toptirishda foydali usullardan biri hisoblanadi.

Topshiriq bola bajarishi mumkin va zarur bo'lgan vazifalar yigindisi bo'lib ota-on, o'qituvchi, tarbiyachi va boshqalar tomonidan qo'yiladigan buyruq-talablarni amalga oshirishdir. Topshiriq bolaning imkoniyatiga, shaxsiy xususiyatlariga, qiziqishga mos bo'lganda mukammal bajariladi va tarbiyalanuvchi faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Noto'g'ri berilgan topshiriqlar bolani qiynashi bilan birga tarbiyasiga yomon ta'sir etishi mumkin.

Talabchanlik topshiriq usuli bilan uzviy bog'liq bo'lib, yoshlarda mehnatsevarlik, bajaruvchanlik, mas'uliyatni his etish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Talabchanlik bola shaxsini hurmat qilish, ishonch bildirish, ma'lum me'yorga amal qilishni taqozo etadi.

Tarbiyalanuvchiga qo'yiladigan talablar o'z vaqtida sifatli qilib bajarilishi zarur, uni nazorat qilish ahamiyatlidir.

Jamoatchilik fikri tarbiyalanuvchining ijtimoiy faoliyatiga boshqalar tomonidan bildirilgan munosabatda namoyon bo'ladi. Maktabda sinf jamoasi ayrim o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega. Tarbiyachi o'z fikrini jamoa talabi darajasiga yetkaza olsa, bola faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishi va yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Jamoa orasida muhokama qilish, haqqoniy baholash, ochiq-oydin yutuq va kamchiliklarni ko'rsatish har bir a'zoni to'g'ri ulgaytirishni ta'minlaydi.

Tarbiyalovchi holatlar yaratish tarbiyachining maxsus, tashkil etgan, o'quvchilar tomonidan to'g'ri yo'l tutish va bu holatdan muvaffaqiyatli chiqib ketishini ta'minlovchi pedagogik jarayondir. Kundalik ta'lim-tarbiya paytida kuzatilish va uzoq kutishni taqozo etadigan holatlar maxsus tashkil etilib, o'quvchilarning mana shu sharoitda qanday faoliyat yuritishga o'rgatiladi.

Nazorat savollar:

- 1.Faoliyatni tartibga soluvchi metodlar toifasiga qaysi metodlar kiradi?
- 2.Qaysi xususiyatlar mazkur metodlar orqali hosil qilinadi ?
- 3.Komil insonning qanday xususiyatlari shu metodlar orqali shakllantiriladi?
4. Bir qancha kursdoshlaringizning yaxshi odatlarini aniqlang va izohlab bering.
- 5.Komil insonning fazilatlarini bayon eting. Ularning qaysilari faoliyatni shakllantiruvchi metodlar orqali tarbiyalanganligini asoslab bering.
- 6.Bir yigit chekish, ichish va bezorilik yo'lga kirib qoldi. O'rtog'i undan bu yo'ldan qaytishini so'radi, u o'zgarmadi. Akasining gapiga kirmadi, ukasining fikriga e'tibor qilmadi. Onasiga va'da berdi, bajarmadi. Otasidan bekinib odatlarini davom ettirdi. Sizningcha uni bu yo'ldan qaytarish uchun qanday yo'l tutish kerak?

5-savol bo'yicha darsning maqsadi: talabalarga tarbiya metodlari haqidagi bilimlarini yaxshi, bir butun qilgan holda tushuncha berish bilan birga ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi metodlarni ham o'rgatish, musobaqalar uyushtirish, rag'batlantirish va jazolashning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatib beriladi.Yaxshi xulq egasi bo'lishga qiziqtiriladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.Ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi metodlarni aniqlab oladi
- 2.Musobaqalar, rag'batlantirish va jazolash metodlarini izohlab beradi
- 3.Musobaqa shartlarini ishlab chiqadi
- 4.Tarbiya jarayonida rag'batlantirish va jazolash metodlarining ta'sirini aniqlaydi
- 5.Maxsus tarbiyaviy holatlar uchun rag'batlantirish va jazolash turlarini tavsiya etadi.

5 – savol bayoni:

Tarbiyalanuvchini ijobiy fazilatlarga yo'naltirish, davat etish, sabab bo'lish, ishtiyoq va havas uyg'otuvchi metodlar bu toifaga jamlangan, tarbiya tajribasida

ko'p qo'llaniladigan va yaxshi natijalar beradigan metod hisoblanadi. Bu guruhga musobaqalar uyushtirish, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

Insonning ongli hayoti davomida boshqalardan ustun bo'lishiga, raqobatga unda muvoffaqiyat qozonishga, birinchilar safidan o'rin olishga intilib yashaydi. Bu his yosh bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Musoboqa metodi shu holatga asoslanadi. Yoshlar tarbiyasining hamma yo'nalishida sog'lom musobaqa uyushtirish va ularning hayotini qiziqarli va sermazmun hamda zavqli qilish. Faqat musobaqa hosil bo'lishi, natijalarning oshkora va taqqoslanish, aniq qoidalarga itoat qilishi zarur.

Ta'limiy ishlarda musobaqa o'ta xushyorlik bilan barcha tomonlarni chuqur o'ylagan holda tashkil qilinishi darkor. Aks holda o'quvchilarni murakkab holatlarga tushurib qo'yiladi.

Musobaqa yakka tartibda yoki jamoa darajasida uyushtiriladi. Uning natijalari tez va to'g'ri baholanganda yoshlardagi ijobiy fazilatlarni kuchaytiradi.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchi xulq-atvoriga beriladigan ijobiy baho bo'lib ezgulikka, komillika undovchi va yetaklovchi usuldir.

Rag'batlantirish haqqoniy, me'yoriy va aniq o'z vaqtda oshkoro amalga oshirilganda samarali bo'ladi. Rag'batlantirishning bir qancha turlari bor. Ularga ma'qullash, maqtash, ishonch bildirish, namuna qilib ko'rsatish, minnatdorchilik, rahmatnoma e'lon qilish, mukofotlashlar kiradi. Mukofotlash o'z navbatida faxriy yorliq, maqtov qog'ozi, diplom, ko'krak nishonlari, o'quv jihozlari, sovg'a va yodgorliklar, pul, chet ellarga yuborish va hakoza tarzda bo'ladi. Mukofotlashda aniq me'yorga rioya qilish zarur. Me'yorga yetmaganda o'quvchining hafsalasi pasaytirilsa ortiq bo'lganda ta'magirlikka o'rgatib qo'yish xavfi tug'iladi.

Jazolash-tarbiyalanuvchidagi salbiy xususiyatlarga berilgan baho va uni tuzatish yo'llarini aniq ko'rsatib beruvchi usullar yig'indisidir. Jazolash ham o'z vaqtida ma'lum me'yor doirasida bo'lishi zarur. Pedagogika fanida jazolashni quyidagi turlaridan foydalanish lozimligi ta'kidlanadi. Tartibga chaqirish, e'tiroz bildirish, uyaltirish, ogohlantirish, do'q-po'pisa, xayfsan, jamoa orasida muhokama qilish, jamoadan chetlashtirish, axloq tuzatish muassasalariga o'tkazish. Tan jazosi berish, ma'naviy taxqirlash, kamsitish pedagogik jarayonda qo'llanilmasligi zarur. Lekin amaliyotda ba'zan jazoning bu turlari berilganligi uchrab turadi. Pedagogik mahorati past bo'lgan tarbiyachilargina bu holatga tushadi.

Nazorat savollar:

1. Ezgulikka yo'naltiruvchi metodlarga qanday metodlar kiradi?
2. Shanbalik o'tkazish uchun ayrim o'quvchilar va guruh jamoalariga mos keladigan musobaqa shartlari qanday bo'lishi mumkin?
3. Darsda gaplashib o'tirgan o'quvchilarga qanday munosabatda bo'lasiz ?
4. Tarbiyada jazoning qanday turlarini qo'llamaslik kerak deb hisoblaysiz?
5. Rag'batlantirish va jazolashda adolatsizlik deb nimani tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Tarbiya qonuniyatlarini boshqa ijtimoiy qonuniyatlarga solishtirish va ularning

- o'zaro farqini, bog'liqligini va o'xshashligini aniqlash.
2. Turli davrlarda tarbiya qonuniyatlarining mazmunini aniqlash va tahlil qilish.
 3. Tarbiya prinsiplarini o'rganish, tahlil qilish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.
 4. Bola tarbiyasida tarbiya prinsiplarining o'zni haqida ma'lumot to'plash va yozma bayon etish.
 5. Tarbiya metodlarini o'rganib, amaliy tajribangizda sinab ko'ring.
 6. Tarbiya metodlarining shaxs kamolotidagi o'rnini izohlang.
 7. Tarbiya metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganing.
 8. Har bir tarbiya metodini amalda tatbiq etib ko'rishni o'rganing.
 9. Har bir tarbiya metodini boshqa metodlar bilan amalda taqqoslang.
 10. Tarbiya metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini amalda aniqlang.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Jamiyatimizga har tomonlama yetuk barkamol insonlarni tarbiyalashda samarali tarbiya metodlarini qo'llashga erishish.
2. Barkamol inson shakllanishida tarbiya metodlarining roli va o'zni.
3. Taraqqiy etib kelayotgan jamiyatimiz a'zolarini uning talabiga mos ravishda tarbiyalash.
4. Barkamol inson shakllanishida turli xil tarbiya metodlarining bir maqsadga qaratilganligi.
5. Tarbiya metodlarining qo'llanilishida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga e'tibor berilishi.
6. Tarbiya metodlarining qo'llanilishida uzviylik, tizimlilik, va izchillikka e'tibor berilishi.

4-mavzu. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari.

Asosiy savollar:

1. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari haqida umumiy tushuncha.
2. Aqliy tarbiya.
3. Axloqiy tarbiya
4. Mehnat tarbiyasi
5. Iqtisodiy va ekologik tarbiya
6. Nafosat va jismoniy tarbiya.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

Mavzuga oid muammolar:

1. Tarbiyaning maqsadi jamiyat va unda mavjud bo'lgan tuzumning shart-sharoitlariga mos holda belgilanadi. Tuzumning o'zgarishi tarbiya maqsadlarini ham ma'lum darajada o'zgartiradi. O'zbekiston Milliy istiqlolga erishgandan keyin tarbiya maqsadlari qanday o'zgarishlarga uchradi? Ba'zi maqsadlar o'zgarishsiz qoldi. Uning sababi nimada?
2. Maqsaddan vazifalar kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri sanalgan yoshlarga milliy va umuminsoniy tarbiya berish qanday vazifalarni keltirib chiqaradi deb o'ylaysiz?
3. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini izchillik bilan yoshlarga singdirish uning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Siz tarbiyaning tarkibiy qismlari qanday tartibda yoshlarga berilgani ma'qul deb sanaysiz?
4. Turli davrlarda tarbiyaning maqsadi muammosi turlicha bo'lgan. O'sha davrlarda tarbiya berishning asosiy vositalari, shakllari nimalardan iborat bo'lgan? Javobingizni izohlang.

1- savol bo'yicha darsning maqsadii: pedagogika uchun tarbiya maqsadini belgilab olish muhim muammolardan biri ekanligi, uning doimo o'zgarib, rivojlanib borishini talabalarga yetkazish, ushbu masalaga nisbatan ularda munosabatni shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Pedagogikaning asosiy muammolaridan biriga aniqlik kiritadilar.
2. Tarbiya ijtimoiy hayotda qanday xarakterga ega bo'lib kelganligini asoslab beradilar.
3. Tarbiyaning maqsadi turli davrlarda turlicha bo'lganligini tahlil qilib beradilar.

1- savol bayoni

Tarbiya ijtimoiy hayotning muhim tushunchasi bo'lib, tarixiy xarakterga ega. Qadimgi davlatlarda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodga yaxshi fazilatli fuqaroni, vatanparvarlikni, jasurlikni, sadoqatni, do'stlikni rivojlantirish bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib, ya'ni feodalizm davrida yosh avlod diniy e'tiqod, iymon, axloqqa ega bo'lishi kerak bo'lgan. Markaziy Osiy xalqlari bu yo'nalishda katta yutuqqa erishgan.

Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi.

Bizning hayotimizga qizil imperiyaning kirib kelishi bilan kommunistik mafkura tarbiyaning bosh maqsadi bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik. Bugungi tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodga Dunyo standartlari bo'yicha zamonaviy bilim berish, ularni har tomonlama yetuk, ma'naviyatli etib tarbiyalashdir.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. A.Farobiy, A. Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al- Buxoriy, Al- Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Firdavsiy, A.Temur, Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli aql egalarining ijtimoiy – siyosiy, falsafiy ta'limotlariga tayanib ish ko'rilsa, tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish – bizning muqaddas burchimiz or –nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish oson emas. U ko'plab, oylab, yillab,sabr –toqat,chidam va qat'iyatlilik, iroda talab etadi.

Aqliy tarbiya

Bu barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib o'qituvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori ongliklik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axloqiy tarbiya

Axloq- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning jamiyatga, boshqalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquq, odob qonun-qoidalarining majmuasidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deyiladi.

Jismoniy tarbiya

Barkamol inson tarbiyasining tarkibiy qismlaridan yana biri jismoniy tarbiyadir.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va Vatanimiz himoyasi uchun qo'rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol-aslaxalardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi.

Ma'lumki, o'quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida beriladi.

Jismoniy tarbiya vositasida o'quvchilarga odamning anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasiga oid tizimli bilim ham beriladi, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Mehnat tarbiyasi

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat — kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Estetik tarbiya

Estetika lotincha «estezio — go'zallikni his etaman» ma'nosini bildiradi. Aqliy, axloqiy, jismoniy va mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifasi o'quvchilarni tabiat va jamiyatdagi go'zallikni idrok qilish, uni to'g'ri tushunish va fahmlash, qadriga yetishga, shu asnoda o'z shaxsiy hayotining go'zal tomonini ko'ra bilishga, go'zal bo'lishi uchun kurashishga o'rgatishdan iboratdir. Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktablarimizdagi musiqa, rasm, ashula darslari, adabiyot va boshqa fanlar estetik tarbiyaning vositasi hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Tarbiyaning asosiy maqsadi?
2. Tarbiyaning tarkibiy qismlarini aniqlang va javobingizni izohlang.
3. Tarbiyaning tarkibiy qismlariga ta'rif bering.
4. Tarbiyaning asosiy vositalariga nimalar kiradi? Javobingizni izohlang.
5. Tarbiyaning turli tarkibiy qismlariga Sharq allomalarining bergan ta'riflarini tahlil qiling. Pedagogikaning bosh muammolaridan birini ayting va javobingizni izohlang.
6. Tarbiya qanday xarakterga ega?
7. Jasur, vatanparvar fuqaroni tarbiyalash maqsadi muammosi qaysi davrga xos?
8. Mustamlaka davrida tarbiyaning bosh maqsadi?
9. Tarbiya milliy qadriyatlarimiz an'analarimizdan uzilib qolgan davrni asoslang.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Axloq, uning asosiy tushuncha va yo'nalishlari haqida o'quvchilarga tushuncha berish. Ularda axloq me'yorlari shakllanishiga yordam beradi va axloq normalarini egallashga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Axloq va uning mohiyatini tushuntiradi.
2. Axloq tushunchalari va yo'nalishlarini sharhlab beradi.

Mavzuga oid muammolar

1. Axloqiy tarbiya kishilik jamiyati hosil bo'lgandan boshlab paydo bo'lgan? Hozirgi davrdagi yoshlarga axloqiy tarbiya berishning mazmuni boshqa davrdan qanday farq qiladi?
2. Quldorlik davridagi axloqan yetuk kishi bilan hozirgi davrning axloqli kishining farqi bormi? Agar farqi bo'lsa nimada deb bilasiz?

2-savol bayoni.

Axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq nima o'zi? Axloq – ijtimoiy ong formasi bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq-atvorini yo'lga solib

turadigan prinsiplar, talablar, normalar va qoidalar majmuidan iborat. Axloqda jamiyatda tarkib topgan «yaxshilik», «sharaf», «vijdon», «adolat» singari tushunchalarda mustahkamlangan odamlar xulq atvori, normalari aks etadi. Bu axloqiy tushunchalarning hammasi ham baholanuvchi xarakterga ega.

Yosh avlodning axloqiy tarbiyasida axloqiy ong va axloqiy tuygularni shakllantirishgina emas, balki eng muhimi – o'quvchilarni ularning ma'naviy munosabatlari namoyon bo'ladigan faoliyatning har xil turlariga jalb etish mumkin. Maktab o'quvchilarining faoliyati jarayonidagi axloqiy munosabatlarida ularning odobli bo'lib tarbiyalanish darajasi aks etadi. A. S. Makarenko o'z vaqtida bunday deb ta'kidlagan edi: «...Biz doimo munosabatlar bilan ish ko'ramiz, chunki xuddi munosabat pedagogik ishimizning haqiqiy obyekti bo'lganligi sababli, bizning oldimizda doimo ikkita obyekt: shaxs va jamiyat turadi. Shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yishning, uni munosabatlardan xoli qilishning mutlaqo iloji yo'q».

Axloqiy munosabatlar – bu jamiyatga, mehnatga, odamlarga va qolaversa har bir kishining o'ziga munosabatidir.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviy keng quloq yoygan ilm taraqqiy etgan mamlakatdagi adolatli jamiyat qurish va unda bir biriga mehr oqibatli kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga ezigulikka intilishi kuchli bo'ladi.

Axloq insoniyat ma'naviy madaniyatining ko'rinishlaridan biri bo'lib, u kishilarning tarixiy tarkib topgan xulq atvori va yurish turishini ifodalaydigan ularning bir-biriga va jamiyatga munosabatini aks ettiradigan muayyan qoidalar yigindisidir.

Nazorat savollar:

1. Axloq qanday tushuncha?
Axloq tushunchalaridan qaysilarini bilasiz?
2. Axloq tushunchalarni izohlab bering.
3. Axloqiy yo'nalishlarni sharhlab bering.
4. Axloq va uning asosiy tushunchalarini taqqoslang.
5. Axloq va uning asosiy tushunchalarini asoslang.
6. O'zingiz bilgan, tanigan biron-bir kishining axloqiy sifatlarini ifodalab bering.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga mehnat tarbiyasining mohiyatini ochib berish. Talabalarda mehnat tarbiyasi malakalarini oshirish va ularda mehnat tarbiyasining mohiyatini mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Mehnat tarbiyasining mohiyatini tushuntirib beradi.
2. Mehnat tarbiyasining mazmunini sharhlab beradi.

3-savol bayoni:

Mehnat butun moddiy va ma'naviy madaniyatning, shuningdek, ijtimoiy

taraqqiyotning negizidir. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlagan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina, mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Shuni alohida takidlash kerakki, mehnatsiz kelgan bo'lik har qanday kishini har qanday oilani buzadi. Har qanday narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, madaniyat barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi, kamol topadi. Mehnat orqali inson o'z qadrini biladi. Uni el, yurt ulug'laydi.

Mehnat madaniyati deganda bajarilayotgan ishning samarali bo'lishiga erishish, mehnat jarayonini puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish, ish joyini ozoda va saramjon tutish, ish qurollariga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabilarni tushunmoq lozim. Mehnatning xususiyatlari uning bir necha turda bo'lishini taqozo etadi. Odamning doimo bajaradigan mehnat turlariga aqliy mehnat, jismoniy mehnat va ijodiy mehnat turlari kiradi.

Nazorat savollar:

1. Mehnat qanday tushuncha?
2. Mehnat tarbiyasining eng asosiy vazifasi nimadan iborat?
3. Mehnat madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. Mehnat tarbiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Mehnat tarbiyasining turlarini aniqlab, ularning bir-biriga bog'liqligini yozma ravishda izohlang.
6. Mehnatning samarasini qanday izohlaysiz?

4-savol bo'yicha darsning maqsadi: Iqtisodiy tarbiyaning mohiyatini talabalarga tushuntirish. Ularda iqtisodiy tarbiya ko'nikmalarini hosil qilishga yordam berish va qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Iqtisodiy tarbiyaning mohiyatini tushuntiradi.
2. Maktabda iqtisodiy tarbiya mazmunini sharhlab beradi.

4-savol bayoni.

Maktabda o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish ta'lim jarayonining muhim tomonidir. Avval iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo'lmoq darkor. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob -kitob kabi qobiliyatlarni tarkib toptirishdir. Iqtisodiy tarbiya mazmuni.

Iqtisodiy tarbiya - jamiyatning shaxsga mustaqil faoliyatida samarali ko'rsatkichlarni ta'minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar iqtisodga bog'langan. Siyosat, qonunlar, qonuniyat asoslari va ularning amalda foydalanishi yo'l-

yo'riqlarning yig'indisini o'zlashtirishga imkon beruvchi izchil maqsadga muvofiq ta'siridir.

Iqtisodiy ta'lim - ijodkor shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko'nikma, malaka yig'indisi, uzluksiz izchil maqsadga ko'ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dasturlar, metodikalar bilan yetkazish jarayonidir.

Boshlang'ich sinflarda "Iqtisod alifbosi" fani o'qitilmoqda. Kitob rasmlardan iborat, chunki o'quvchi ko'rganini yaxshi eslab qoladi.

Yuqori sinflarda "iqtisodiy bilimlar asoslari" degan dars o'tilmoqda. "Bozor", "Ishlab chiqarish texnologiyasini o'stirish", "Mahsulotlarning tan narxi", "tovarlarni chet ellar bilan turli yo'llar orqali ayriboshlash" kabi mavzulardagi mashg'ulotlar hayotiy tusda o'tkazilsa o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi.

Nazorat savollar:

1. Iqtisodiy tarbiya nima?
2. Maktablarda iqtisodiy tarbiya berishda qanday fanlar kiritilgan?
3. Iqtisodiy tarbiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
4. Maktabda iqtisodiy tarbiya berish mohiyatini izohlab bering
5. Maktabda iqtisodiy tarbiya berishning mazmunini asoslab bering.
6. Sinfdan va maktabdan tashqarida iqtisodiy tarbiya qanday berilishi mumkin?

5-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga nafosat tarbiyasining mohiyatini tushuntirish, nafosat haqida ilmiy tushunchalarini izohlab berish, jamiyatdagi va kishilar faoliyatidagi go'zallikni o'rgatish, did, faxm-farosatni shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadi.

1. Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunini farqlaydi.
2. Nafosat tarbiyasining mohiyatini so'zlab beradi.
3. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarini taqqoslab ko'radi.

5-asosiy savol bayoni:

Nafosat tarbiyasi – borliqdagi va san'atdagi go'zallikni tushunish, ulardan zavqlanish va uni yaratishga intilishni tarkib toptirish.

Inson har doim go'zallikka intiladi, undan ma'naviy ozuqa oladi. O'z hayotini, faoliyatini, turmush sharoitini, o'zini o'rab turgan atrof- muhitni go'zalroq bo'lishiga harakat qiladi.

Bu hol o'z navbatida uning dilini, nozik his-tuyg'ularini shakllantiradi. Odamlarni o'ziga rom etuvchi go'zallik namunalari hayotning turli jabhalarida namoyon bo'ladi.

Shuning uchun bolaga juda yoshligidan oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, ayniqsa maktabda nafosat tarbiyasi alohida e'tibor bilan beriladi.

Nafosat tarbiyasi har bir davrda, har bir xalqda turlicha bo'lsada, uni amalga oshirishning asosiy vositalari, tabiat go'zalligini sanab o'tadi. Bu vositalar bir-birini to'ldirib,boyitib beradi.

Barchasidan to'la bahramand bo'lgan kishining ma'naviy boy, yuksak didli bo'lsagina zavqli hayot kechirishi mumkin.

Tabiat o'ziga xos go'zalliklarga ega bo'lib, ma'lum qonuniyatlari asosida o'zgarib, jilolashadi. Yil fasllarning almashinuvi tabiatning ranglarini, shakllarining xushbo'y hidlaru, turli, jonzotlarning yoqimli tovushini inson shu o'ringa tortiq etadi.Ular har bir kishini baxtiyor poklik,beg'uborlik olamiga olib kiradi.

Nafosat tarbiyasining yana bir tarbiyasi badiiy ijod namunalari hisoblanadi. Ayrim pedagogik adabiyotlarda badiiy tarbiya deb nomlanib, o'z ichiga badiiy adabiyot,musiqqa,qo'shiq va raqs sa'natini,teatr va kino sa'natini, tasviriy san'atning, xaykaltaroshlik, me'morchilik, xalq amaliy sa'nati va boshqalarni oladi. Bu san'at asarlarining qiymati dunyoviy boyliklarda imkoniyatlari cheksizdir. Ayrim sa'nat asarlarining qiymati dunyoviy boyliklarda nihoyat darajada ustun turganidek, badiiy tarbiya ham odamlarning ma'naviy boyishlarida tengi yo'q ta'sir kuchiga egadir. Dunyoning yetti mo'jizasi sanalgan Misr fir'avnlarning ehromlari, Bobilning osma bog'lari, Efesdagi Artemida ibodatxonasi, Rodoskiy haykali va Fors orolidagi mayoq hayratomuz go'zallik namunalari sanaladi. Yoshlarga nafosat tarbiyasi berishda inson shaxsiyatidagi go'zallik namunalari sanaladi. Yoshlarga nafosat tarbiyasi berishda inson shaxsiyatidagi go'zallikka ega bo'ladi.

Rus yozuvchi A.Chexov »Insonda hamma narsa go'zal bo'lish kerak» degan edi, ammo ularning orasida alohida ajralib turadigani ma'naviy go'zallikdir.

Shuning uchun ham milliy istiqloлга erishgandan keyin xalqning ma'naviyatini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Nazorat savollar:

1. Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunidagi farqini ajratib chiqing.
2. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalarni taqqoslab ko'rsating.
3. Inson shaxsidagi go'zallik namunalarni tahlil qiling.
4. O'zingizning va yaqin kishilaringizning nafosat xususiyatlarini qiyoslab chiqing.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Tarbiyaning asosiy yo'nalishlari haqida umumiy tushuncha ma'lumot berish.
2. Axloqiy tarbiyani asosiy tushunchalarini o'rgatish.
3. Mehnat tarbiyasi asosida ko'nikma hosil qilish.
4. Iqtisodiy va ekologik tarbiyaning o'rni.
5. Nafosat va jismoniy tarbiyaning komil inson tarbiyasidagi o'rni.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. O'quvchi yoshlarda vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish.
2. Axloq normalari va ularning inson kamolotida tutgan o'rni.
3. Barkamol insonni tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning tutgan o'rnini aniqlash.
4. Yoshlarni o'z va o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatish.
5. Iqtisodiy muammolarni yechishda iqtisodiy tarbiyaning samarali shakl, metod va vositalaridan foydalanish yo'llarini aniqlash.
6. Ekologik muammolarni hal etish maqsadida jamiyat a'zolarida ekologik tafakkurni shakllantirish.

5-MAVZU: BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASB TARBIYASI, TARBIYACHI VA SINIF RAHBARINING O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASH USULLARI.

Asosiy savollar:

1. Kasb tarbiyasi va uning mohiyati. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablar.
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibi.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda sinf rahbari va tarbiyachining roli.
4. O'quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o'rni.
5. O'quvchilar jamoasini rivojlantirish bosqichlari;

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Sinf, jamoa, o'quvchilar jamoasi, tarbiyaviy ish reja, tarbiyachi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik, tarbiyaviy soat, ota-onalar qo'mitasi, pedagogik hamkorlik, formal jamoa, noformal jamoa, umummaktab jamoasi, jamoada shaxs tarbiyasi, jamoa faollari, topshiriqlar, jamoaning rivojlanish bosqichlari, o'z-o'zini boshqarish, istiqbolli rejalar, parallel tarbiyaviy ta'sir, an'analar, yagona talab.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish tushuntiriladi. Tarbiyaviy ishlarni to'g'ri rejalashtirish va o'tkazish tartibini o'rganish orqali talabalarda rahbarlik va tarbiyachilikka qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishni tushuntiradi
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o'tkazish tartibini asoslaydi.

Mavzuga oid muammolar:

1. Tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish uchun umumta'lim maktablariga mo'ljallangan namunaviy ish rejalari mavjud. Bu rejadan kelib chiqqan holda sinf rahbarlari yillik tarbiyaviy ish rejasini ishlab chiqadilar. Sinf rahbari ish rejasini tuzishda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Sinf rahbarining ish rejasida darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni belgilashda nimalar muhim sanaladi? Fikringizni dalillang.

2. Pedagoglarning ish tajribasidan kelib chiqqan holda maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishning bir necha usullari aniqlangan. Ularni o'z xususiyatiga qarab ketma-ketlikda joylashtiring. Qaysi usul tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ta'sirliroq hisoblanadi? Javobingizni izohlang.

3. O'qituvchi va sinf rahbarlari milliy tarbiyaning umumiy maqsadi har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni amalga oshiradilar. Bunday vazifalarga nimalarni kiritasiz? Ulardan qay biri ustuvor hisoblanadi?

1-asosiy savol bayoni:

Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini talabga muvofiq uyushtirilishi ko'p jihatdan maktabning to'g'ri boshqarilishiga o'quvchilar jamoasining, maktab direktori rahbarligida uyushqoqlik bilan ishlashga bog'liqdir.

Maktabda ta'lim tarbiya ishlarini yagona reja asosida tashkil qilish va olib borish, to'g'ri boshqaruv uslubining ajralmas qismidir.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish uchun umumta'lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalari mavjud.

1. Maktabning ma'lum istiqboli davriga mo'ljallab tuzilgan ish rejasi.
2. Maktabning bir o'quv yiliga mo'ljallab tuzilgan ish rejasi.
3. Joriy ish rejasi.

Maktabning tarbiyaviy ishlariga reja asosida rahbarlik qilish maktabda tarbiyaviy ishlarni qo'yishda tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab direktorining o'rinbosari rahbarlik qiladi. Maktabning ish rejalaridan kelib chiqqan holda sinf rahbari ham rahbarlik qiladigan sinfi uchun ish reja tuzadi.

- 1) O'quvchilarni o'rganish. Sinfga rahbarlik qilish odatda sinfni va alohida har qaysi o'quvchini o'rganishdan boshlanadi.
- 2) Sinf o'quvchilar jamoasini tashkil etish va tarbiyalash. Sinf o'quvchilar jamoasini uyushtirish va tarbiyalash sinf rahbari ishining asosiy qismlaridan biridir.
- 3) O'quvchilar bilimi sifatini oshirish hamda ularning tartib-intizomini mustahkamlash. Bilimlarning yuksak darajada bo'lishi va ongli intizom sinfda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning eng muhim ko'rsatkichlaridandir.
- 4) Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish.
- 5) O'quvchilarning ota-onalari bilan ish olib borishi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi quyidagi tartibda tuziladi:

1. Sinf jamoasining shakllanganlik darajasi va u bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishning mazmuni.
2. O'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilash tadbirlari.
3. O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash.
4. Sinf faollari bilan ishlash.
5. Ommaviy ma'daniy ishlar.
6. Sinfda jismoniy tarbiya va sport ishlari.
7. Ota-onalar, ishlab chiqarish vakillari hamda jamoatchilik bilan ishlash.

Maktab tarbiyasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning usullari tarkib topib, muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda. O'quvchilar bilan yalpisiga hamda yakka va guruhlariga bo'lib ish olib boriladi.

Pedagoglarning tarbiyaviy ish tajribasiga asosan tarbiya berishni yo'lga qo'yish usullarining quyidagicha shakllari mavjud:

- A) Yalpi yoki hamma o'quvchilar bilan ish olib borish yoki to'garak ishlari.
- B) Individual ish olib borish.
- V) Guruhlarga bo'lib ish olib borish.

Bu ish shakllarining hammasida quyidagicha usullar mavjud:

- A) Og'zaki ish usullari
- B) Amaliy ish olib borish usullari
- V) Ko'rgazmali ish olib borish usullari.

Nazorat savollar:

1. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish haqida tushuncha bering va izohlang.
2. Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning mohiyatini ochib bering.
3. Maktabda tarbiyaviy ishlarni o'tkazish tartibini sharhlab bering.
4. Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va o'tkazish tartibini asoslab bering.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablar haqida tushuntiradi. Ularni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yiladigan talablarni tushuntiradi.
2. Sinf rahbari va tarbiyachining maqsad va vazifalarni asoslab beradi.

2-asosiy savol bayoni:

O'qituvchi va sinf rahbarlari milliy tarbiyaning umumiy maqsadi har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq barcha vazifalarni amalga oshiradilar. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek maktab o'quvchilarida milliy mafkuraviy dunyoqarash asoslarini, mehnatsevarlikni, bilimdonlik va ijtimoiy faollikni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaga tizimiylik va izchillik bilan yondashgan holda o'quvchilarning aqliy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat, axloqiy estetik va jismoniy tarbiyasini amalga oshiradi. Bunda axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va boshqa tarbiyaning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari o'qituvchi tarbiyachilar bolalar jamoasini yaratish vazifasini bajaradilar, ota-onalar bilan tizimli va har xil ish olib boradilar. O'quvchilar jamoasiga uslubiy yordam ko'rsatadilar.

O'qituvchi-tarbiyachining vazifasi juda rang-barang. Ulardan muhimlari quyidagilardir:

- Bolalar tarbiyaviy jamoasini tashkil etish va yaratish.
- O'quvchilarni o'rganish va o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.

- Xilma-xil sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish.
- O'quvchilarning fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlashi.
- Ota-ona va jamoatchilik bilan ishlashi.
- O'quvchilarni mehnatga, bo'lajak kasbini tanlash ishlariga jalb qilish.
- O'quvchilarda kasbiy madaniy munosabatlarni shakllantirish.

Har bir sinfdan tarbiyaviy ishlar olib borish uchun sinfdan dars beruvchi tajribali o'qituvchilardan sinf rahbari tayinlanadi. Uning vazifasi shu sinf o'quvchilarining ta'lim tarbiya ishlarini birlashtirib yo'lga soladi. O'quvchilarni har tomonlama kamolga yetkazish vazifalarini hal etadi.

Nazorat savollar:

1. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni tushuntirib, ochib bering.
2. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarni siz o'qigan maktabda qanday bajarilganligini tahlil qiling.
3. Turli maktabdagi sinf rahbari va tarbiyachiga qo'yilgan talablarning usullarini kuzating. Ular o'zlariga qo'yilgan talablarni qanday bajarmoqda, ularni bir-bir taqqoslang.

3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: O'quvchilar jamoasining mohiyatini bayon etadi. Jamoaning paydo bo'lishi va tarkib topishida topshiriqlarning ahamiyatini ochib beradi. Jamoaning o'quvchi shaxsiga ta'siri va tarbiyaviy imkoniyatlarini tushuntiradi.

Talabalarining o'z jamoalarida tutgan o'rni va mavqeini anglashga yo'naltiradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Jamoa va o'quvchilar jamoasining mohiyatini aytib beradi.
2. Jamoaning o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini izohlaydi.
3. Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini sharhlaydi.

3-asosiy savol bayoni:

Pedagogika fani o'quvchilar jamoasini tashkil etish va shakllantirishga tarbiya nazariyasi va amaliyotining markaziy masalalaridan biri deb qaraydi. Jamoada, jamoa orqali va jamoa uchun tarbiyalash tarbiya nazariyasining muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Inson bolasi dunyoga kelganidan umrining oxirigacha turli jamoalarning a'zosi bo'lib yashaydi. Oila jamoasi, maktabgacha tarbiya, maktab jamoasi, ishlab chiqarish jamoalari uzoq davom etadigan farmal jamoalar hisoblanadi.

Farmal jamoa aniq tartib-qoidalar asosida ma'lum muddat davomida birlashgan kishilar uyushmasidir.

Nofarmal jamoa- qisqa, tasodifiy yoki vaqtinchalik birlashgan kishilar yig'indisidir. Bunda har bir kishining o'ziga yarasha maqsadi asosiy rol o'ynaydi.

Nofarmal jamoaning uzoq vaqt davom etadigan va shaxsga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shakli o'rtoqlar guruhi (ulfatchilik) hisoblanadi.

Bola shaxsiga tarbiyaviy ta'sir etuvchi jamoa o'quvchilar jamoasidir. Jamoa deyilganda umumiy maqsad (ijtimoiy foydali ahamiyat kasb etgan) va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarning birlashmalari tushuniladi. Bolalarning jamoadagi o'zaro munosabati, shaxsiy javobgarlikni his etishi, huquqdan foydalanish va vazifalarni bajarishda barcha a'zolarining tengligi bilan belgilanadi. Jamoaning asosini boshlang'ich jamoa tashkil etadi. Boshlang'ich jamoa A.S.Makarenko ta'biri bilan aytganda «shaxs bilan aloqada bo'lishi asbobi»dir, chunki, unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, hamma vaqt birgalikda harakat qiladilar, butun jamoaga qo'yilgan maqsadni hal etishda qatnashadilar. Har bir boshlang'ich jamoa (sinf) o'z tarkibiy qismlariga ega bo'lsada, umumiy jamoaning bir qismi hisoblanadi. Bu jamoa maqsadlarining birligi va umumiy ishlarni tashkil etishi bilan bog'liq bo'ladi.

Nazorat savollar:

1. *Jamoa va o'quvchilar jamoasining mohiyatini aytib bering.*
2. *Jamoaning o'quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlarini tahlil qiling.*
3. *Jamoaning jipslashuvida topshiriqlarning ahamiyatini aniqlang.*
4. *Farmal va nofarmal jamoaning bir-biriga o'xshashlik va farqini izohlang.*

4-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlarini birma-bir talabalarga tushuntirib beradi. Har bir bosqichda jamoa qanday holatda bo'lishini izohlaydi.

Talabalarni jamoa tarkibida faol bo'lishga odatlantiradi.

Jamoani hurmat qilishga va uning barcha talablarini bajarishga o'rgatadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. O'quvchilar jamoasining bosqichlarini so'zlab beradi.
2. Har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi.
3. Jamoa faollarining xususiyatlarini tavsiflaydi.

4-asosiy savol bayoni:

O'quvchilar jamoasi sinf tashkil topgan kundan boshlab shakllanib boradi. Ammo, dastlabki davrlarda hali jamoa jipslashmagan, alohida o'quvchilar guruhi sifatida mavjud bo'ladi.

O'qituvchining, umummaktab jamoasining va sinf o'quvchilarining sa'y-harakatlari bilan sekin-asta jamoa tartib-qoidalari namoyon bo'lib bora boshlaydi.

Bu jarayon bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan bir qancha bosqichlarda o'z takomiliga yetadi.

Birinchi bosqich: o'quvchilar bilan ishlashning dastlabki davrida – hali jamoa tashkil etilmagan, faollar shakllanmagan vaqtda, shaxsga nisbatan jamoaning talabi bo'lmaydi, har bir o'quvchi o'zi uchun javob beradi, o'quvchilar hali o'z o'rtoqlari oldiga ham biror talabni qo'ya olmaydilar.

Ikkinchi bosqich: faollar bilan astoydil ishlash, ularni jipslashtirish va birgalikda ishlashga o'rgatish, jamoa ishlarini tashkil qilish bilan xarakterlanadi. Buning uchun esa faollarni tez-tez yig'ish, ular bilan ayrim muhim masalalar bo'yicha seminarlar o'tkazish, o'z maktabining ishlari hamda istiqbollari haqida suhbatlashish, ular bilan birgalikda kundalik masalalarni hal qilish, faollar ichida rahbarlik ishiga layoqatli bolalarni tanlash (saylash) zarur.

Uchinchi bosqich: jamoa hayotining barq urishi o'zaro munosabatlarning shakllanishi jamoaning shaxsga ta'siri bilan xarakterlanadi.

Faollar hamda o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy faoliyatning xilma-xil turlari ta'sirida jamoa rivojlanadi. Uchinchi bosqichda o'qituvchi va faollarning talablarini ko'pchilik o'quvchilar qo'llab quvvatlaydilar. O'qituvchining pedagogik mavqei yashirin shaklga kirib boradi.

O'qituvchi shaxsga sinf jamoasi orqali ta'sir etadi. Bunday ta'sir ko'rsatish natijasida ham shaxs ham jamoa tarbiyalanib boradi. Bunday metod parallel pedagogik ta'sir ko'rsatish metodi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich: bu davrda pedagogik vazifalar murakkablashadi. Jamoaning ayrim shaxsga ta'sir doirasi kengayadi. Har bir o'quvchining axloqiga va jamoatchilik o'rtasidagi o'zini tuta bilishiga bo'lgan talabi kuchayadi. Bu bosqichda barcha masalalarni shu bilan birga axloqiy o'zlashtirish, turmush masalalarini ham, buning ustiga faqat xatti-harakatlarnigina emas, balki shu xatti-harakatlarga undovchi motivlarni ham jamoa muhokamasiga qo'yish mumkin. Shaxsning o'ziga qo'ygan talabi boshqalarga qo'ygan talabiga qaraganda yuqoriroq bo'ladi. Bu bosqichda o'quvchilar jamoasi kattalar jamoalari bilan hamkorlik o'rnatadilar. Pedagog jamoa rivojlanishining qonunini bilsa, jarayonni tezlashtiradi, bilmasa sekinlashtirib yuborishi mumkin.

Nazorat savollar:

1. *Jamoa faollarini tanlashda e'tibor beriladigan xususiyatlarni aniqlang va yozma bayon eting.*
2. *Faollarga yondoshishda bola shaxsini hurmat qilish va imkoni boricha talabchan bo'lish qoidasiga amal qilishning mohiyatini tushuntirib bering.*
3. *Jamoa faollarining axloqiy fazilatlarini qanday bo'lishi kerak. Qachon ularni barcha o'quvchilar tan oladilar. Fikringizni izohlang.*

5-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi:

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning metodikasini talabalarga tushuntirish. Jamoa oldiga va ayrim o'quvchilarga talablar qo'yishning usullari, istiqbolli rejalar qabul qilish va bajarish yo'llari, an'analarga tayyorgarlik ko'rish va nishonlash metodikasi haqida ma'lumot beriladi. Talabalar ishtirok etishi mumkin bo'lgan jamoalarda o'z o'rnini topishga, faollik ko'rsatishga odatlantiriladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. *O'quvchilar jamoasini mustahkamlashda talablar qo'yishning samarali yo'llarini qayd qiladi.*
2. *O'quvchilar jamoasini shakllantirishning turli yo'llarining farqini ko'rsatadi.*

3. *Talab qo'yish, istiqbolli rejalar tuzish va bajarish, an'analarni nishonlash usullarini taqqoslaydi.*

5-asosiy savol bayoni:

Jamoani shakllantirishda o'quvchilarga qo'yiladigan yagona talabning ahamiyati kattadir. Maktabning «yagona talabi» – bu har xil sharoitlarda o'quvchilarning xatti-harakatini tartibga soluvchi bir necha o'nlab bandlarni o'z ichiga oluvchi hujjatdir. Yagona talab o'quvchilarning darslardagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylarida, uydagi madaniy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga oladi. Pedagoglar jamoasi tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlardagina ijobiy natija beradi:

1. ***O'quvchilarga qo'yiladigan talablar o'quvchini hurmat qilishni o'z ichiga olish kerak.***
2. ***Pedagoglar jamoasi yagona talablarni muayyan maktabning, sinfning aniq sharoitini hisobga olgan holda qo'yilishi kerak.***
3. ***Talablar aniq bo'lishi kerak. O'quvchilar o'zlaridan nima talab qilinayotganligini aniq tushunishlari lozim.***

O'quvchilarga talablar qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirib, ularning ahamiyatini tushuntirishi, tajriba orttirishi hamda ularni muntazam sur'atda nazorat qilib borishdan iborat.

O'quvchilar jamoasi shunday ishlarni tanlab olishi kerakki, bu ishlar barcha o'quvchilar hamda har bir o'quvchining qiziqishiga javob bersin. Bunday istiqbol rejalar qabul qilish va bajarish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbol rejalar belgilashning ikki asosiy metodi borligini ko'rsatish o'rinlidir.

- 1) *O'qituvchining o'zi o'quvchilar oldiga vazifa qo'yadi, bunda u ana shu vazifalarni hal etish yo'llarini ko'rsatadi va o'quvchilarni qiziqtirishga intiladi.*
- 2) *O'quvchilarning o'zlari qiziqarli tadbirlarni ilgari suradilar, o'qituvchi bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi hamda amalga oshirish usullarini topishda yordam beradi.*

Birinchi metod o'quvchilar jamoasini tarkib toptirishning dastlabki bosqichida, ikkinchisi esa ancha yuqoriroq bosqichda, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talabni sinf faollari qo'llab quvvatlaydigan davrda qo'llaniladi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar jamoasi faoliyatini o'zlashatirishni yuqori ko'tarish uchun kurashga yo'naltirishdan iborat.

Belgilangan ishlar quyidagi sharoitlarga rioya qilingandagina yaxshi natija berishi mumkin:

A) Ishlarni bajarishga puxta tayyorgarlik ko'rish;

B) Tayyorgarlik ishlarida iloji boricha ko'proq o'quvchining qatnashishi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. An'ana o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatining shunday shakliki unda munosabatlar xarakteri hamda ijtimoiy fikr yorqin ifodalanadi. Mavjud an'analarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin.

A. Kundalik turmush an'analari.

B. Bayram an'analari.

Kundalik turmush an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyatini, mehnat faoliyatini va boshqa faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Bayram an`analariga davlat tomonidan belgilangan kunlarni nishonlash, bitiruvchilar kechasi, paxta bayrami o`tkazish, «alifbe kuni» va boshqalar kiradi.

Nazorat savollar:

- 1. Faollar bilan ishlashda quyi sinf o`quvchilari, o`rta yoshdagi o`quvchilar hamda yuqori sinf o`quvchilariga mo`ljallangan ish usullarini tahlil qiling.*
- 2. Istiqbol rejalar qabul qilish va bajarishning tarbiyaviy ahamiyatini so`zlab bering. Ularning yutuqlarini izohlang.*
- 3. Qisqa, o`rta va uzoq muddatli istiqbol rejalariga misollar keltiring. Ularning qabul qilinishi, bajarilishi va yakunlanishini taqqoslab ko`ring.*
- 4. Parallel ta`sir etish prinsipining mohiyatini tushuntirib bering va uning ahamiyatini izohlang.*

Mustaqil ish topshiriqlari:

Maktabning ma`lum davrga mo`ljallagan istiqbol ish rejasining mohiyatini o`rganish.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasini tahlil qilish.

Maktab tarbiyasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish usullarining bugungi kundagi ahamiyatini qiyosiy tahlil qiling.

Sinf rahbari va tarbiyachiga qo`yilgan talablarni asoslab bering.

O`qituvchi –tarbiyachining vazifasi rang–barang, ulardan muhimlarini ajratib ko`rsating.

Mavzu bo`yicha ilmiy xulosalar:

Kasb tarbiyasi va uning mohiyati. Sinf rahbari va tarbiyachiga qo`yiladigan talablarni tushuntirish.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va o`tkazish tartibini aniqlash.

O`quvchilar jamoasini shakllantirishda sinf rahbari va tarbiyachining roli

O`quvchilar jamoasining tarbiya jarayonidagi o`rni

Mavzu bo`yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

O`quvilar jamoasining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash.

O`quvchilar jamoasining boshqa jamaolar bilan aloqasini mustahkamlash shart-sharoitini belgilash.

Jamoadi shaxsning shakllanish dinamikasini o`rganish.

Talab qo`yish, istiqbol rejalar tuzish va bajarish, an`analarni nishonlash usullarini takomillashtirish.

Sinf rahbari olib boradigan asosiy tarbiyaviy ishlarning samaradorlik darajasini oshirish me`yorlarini aniqlash.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni yo`lga qo`yish, rejalashtirish va o`tkazish tartibini o`rganish.

Turli sinflarda o`tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning o`quvchilar yosh xususiyatlariga, qiziqish va ehtiyojlariga mosligini aniqlash.

Asosiy adabiyotlar:

I.A.Karimov Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 y.,32 b.

Pedagogika A.K.Munavvarovaning tahriri ostida.T 1996y ,24 b.

A.S. Makarenko «Bola tarbiyasi haqida suhbatlar»T 1978y, 72 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

Pedagogika. T.A.Ilina tahriri ostida. M., 1984. 45 b.

6-MAVZU: DIDAKTIKA HAQIDA TUSHUNCHA. TA'LIM JARAYONINING MOHIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI.

Asosiy savollar:

1. Didaktikaning taraqqiyoti va asosiy muammolari.
2. Ta'lim jarayoni mohiyati va vazifalari.
3. Bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari.
4. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarining tasnifi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

O'qitish, o'qish, ta'lim ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyati turlari, ta'lim jarayonining falsafiy asosi, bilish nazariyasi, bilishning uch bosqichi, ta'lim jarayonining funksiyalari, ta'limda qarama-qarshiliklar, bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari, o'quv motivlari. Didaktika, bilim, ta'lim, bilish, faoliyat, o'qituvchi, o'quvchi, «buyuk didaktika»

Mavzuga oid muammolar

- 1.Ya. A. Komenskiy yashagan davrdan etiboran didaktika zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy tizimi tushuniladi.Sizningcha didaktikaga oid tushunchalar ibtidoiy jamoa tuzimi davrida ham bo'lganmi?
2. Didaktika o'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitish prinsiplari, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkil etilishi kabi kategoriyalarni o'z ichiga oladi.Hozirgi davrda didaktikaning ushbu kategoriyalarning mazmuni o'zgarganmi? Agar farqi bo'lsa nimada deb bilasiz?
- 3.Ta'lim o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.Sizningcha, bu faoliyatning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri bormi?
- 4.O'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Sizningcha bu faoliyatdagi bilim, ko'nikma va malakalar faqat o'quvchiga yo'naltirilganmi?

1-savol bo'yicha dars maqsadi: Didaktikaning mohiyatini talabalarga tushuntirish. Ularga didaktika tushunchasini chuqur egallashiga yordam berib, o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Didaktikaning mohiyatini tushuntiradi.
2. Didaktikaning mazmunini sharhlab beradi.
3. Didaktikaning mohiyatini asoslab beradi.

1-savol bayoni.

"Didaktika " termini yunoncha " didaktikos " degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ta'lim beruvchi degan ma'noda tarjima qilinadi.

Ya. A. Komenskiy yashagan davrdan e'tiboran didaktika zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy tuzumi tushuniladi. Hozirgi vaqtda " didaktika" termini bilan birgalikda keng ma'noda o'qitish nazariyasi ta'lim berish nazariyasi ishlatiladi.

Didaktika quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitish prinsiplari, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkil etilish shakllari

Didaktika sistemasini izchil tarzda o'zlashtirish o'quv-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini tushunishga, ijodiy yondashishni va mahoratni ta'minlashga yordam beradi. Didaktika o'ziga xos tushunchalari va terminlariga ega. Ular asosan pedagogika fanining shu bo'limida qo'llaniladi. O'qitish, ta'lim olish, o'rganish mustaqil ravishda o'qish ilmiylik, sistemalik, ko'rgazmalilik, ta'lim olish, o'quvchilarning ongliligi va faolligi, ta'lim olishning individuallashtirish va differentsiyalashtirish, dars, sinf, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv ekskursiyalari, o'zlashtirish va shu kabilar ancha ko'p qo'llanadigan terminlardir.

Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish», va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi. Ayni vaqtda har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sharqu-G'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi. Buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabilar tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni o'qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g'oyasini olg'a surdilar. Ular dunyoviy ta'limni keng rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi A.Avloniy, X.X.Niyoziy, M.Rasuliy, K. Niyoziy, O.Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog'liq. Pedagogik faoliyatdagi formalizmning qat'iyani oldini olish, o'qitishdagi muqobil usul, shakl va vositalarini tanlash, pedagogika fani yutuqlarini amalga joriy qilish vaqti yetdi. Usuliy ishlarni jonlantirish, o'qituvchilarning tashabbuslarini, ijodiy izlanishlarini har tomonlama rivojlantirish, ilg'or pedagogik tajribani chuqur o'rganish lozim.

Lekin bu dasturni amalga oshirishda hech bir holda avvallari pedagogika hamda didaktikada yaratilgan asarlarni, xalq pedagogikasining nodir meroslarini chekkaga surib qo'yish mumkin emas. Pedagoglar bir qancha avlodlarning

mehnati bilan qo'lga kiritilgan, pedagogika fani erishgan barcha qimmatli yutuqlar, zamon sinovidan o'tgan jamiki ilg'or qarashlarni avaylab asrashi va o'sha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak.

Nazorat savollari:

1. *Didaktika pedagogikaning boshqa tarkibiy qismidan alohida rivojlanish mumkinmi?*

2. *Nima uchun aynan XVII asrda didaktika ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan?*

2-savol bo'yicha dars maqsadi: Didaktikaning tarixi, asosiy didaktik muammolar va rivojini talabalar ongiga yetkazish, ularda ta'lim nazariyasini o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Didaktikaning paydo bo'lishi mazmunini so'zlab beradi.
2. Didaktikaning taraqqiyoti va asosiy didaktik muammolar haqida sharhlab beradi.
3. Didaktikani pedagogikaning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini asoslaydi.

2-savol bayoni.

O'qitish to'g'risidagi fikrlarni o'tmishdagi faylasuflar va olimlar qadim-qadimlardayoq bildirishgan. O'qitish nazariyasini ilmiy bilimlar sistemasi sifatida pedagogika fani pedagogik tafakkur tarixini birinchi bo'lib Ya.A. Komenskiy XVII-asrda yaratdi, falsafiy fikrlarga, o'sha davrdagi maktablar ish tajribasini nazariy tahliliga tayanib u o'zining mashhur "Buyuk didaktika" (1658 y) degan asarini yozdi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki davrlarida o'qitish ishi tarbiya bilan bir butun holda, uzviy bog'langan edi. Ta'limning mazmuni u qadar murakkab bo'lmay ko'pincha bolaning katta yoshdagilarga taqlid qilishi, ular bilan birga ishlashi tarzida amalga oshirilardi. Bola kattaga taqlid qilib, uning ishlaridan na'muna olib, tajribasini o'rganardi va o'zlashtirardi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida o'qitish ishi ma'lum darajada tus oldi. Bilimlar murakkablashdi va bilim faoliyatini maxsus ravishda tashkil etishni talab qildi. Ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi muloqot va taqsimot ayrim kasblarning mutaxassislarini tayyorlash vazifasini o'rtaga qo'ydi. O'qitish ishi ta'limning o'ziga xos maqsadlarining mazmunini va tashkil etilishini aks ettiruvchi mustaqil xarakterga ega bo'ldi.

Bilish jarayoni kabi ta'lim jarayonida ham o'quvchi bilmaslikdan bilishga, noto'g'ri va noaniq bilishdan to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko'rish ham bo'ladi. Bilish ikki pallaga- nazariya va amaliyotga bo'linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariyada g'oya shakllanadi. Amaliy bilimlarning haqiqiyligini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish tajriba, o'zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakliga kiradi. Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Bu o'quvchilarda bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish, o'quvchilarning muayyan darajada

o'qimishli, fikrli, madaniyatli, tarbiyali, chin inson bo'lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iboratdir.

Ta'lim insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birlikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama xarakterga ega.

O'qituvchining faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi. Chunki u o'qitadi, ta'lim beradi.

O'quvchi faoliyati ichki jarayonni tashkil etadi. Chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib tushunib oladi.

O'qitish jarayonining ichki tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'qitish bilishdan farqli o'laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning bilish faoliyati uchta bosqichda olib boriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish, voqe'likdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilish bilish faoliyatining birinchi bosqichidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqichi- bilimlarni tushunish va umumlashtirish.

Uchinchi bosqich mustahkamlash va qo'llashdir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo'llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi. Ularni amalda qo'llanish ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

O'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashning, o'quv tarbiya jarayonini takomillashtirishning katta imkoniyatlari mavjuddir. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi ixlos qilishini asosiy yo'nalishlarida diqqat e'tibor hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish va fan texnika taraqqiyoti sharoitlarida yoshlarni kasb tanlashga yo'llash, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlashdan iboratdir. 1997- yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash "Milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda hozirgi yashab turgan jamiyatimizga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hozirgi demokratik jamiyatda yoshlarni erkin fikrga o'rgatish ,yoshlarni o'z qobiliyati, havasi, kiyinishiga mos, hayotda o'ziga

munosib o'rnini topishini ta'minlash oldimizga qo'yilgan vazifamizdan biri hisoblanadi.

Bu borada yetuk mutaxassislar o'z tajribalariga tayangan holda nazariy jihatdan asoslangan bu bilimlarni amalga tatbiq etishmoqdalar .

Nazorat savollari:

1.Ya.A.Komenskiy didaktikani ilmiy-nazariy jihatdan qanday asoslagan deb bilasiz?

2.Hozirgi davrda didaktik muammolar o'z yechimiga egami? Agar ega bo'lmasa sizningcha bular nimalarda deb bilasiz?

3-savol bo'yicha dars maqsadi:Ta'lim ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyat turi ekanligini, uning asosiy funksiyalarini yoritib berish, talabalarni o'quv-tarbiya jarayoniga nisbatan qiziqishlarni oshirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.Ta'limning bosh maqsadini aytib beradi.

2.Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligining mohiyatini ochib beradi.

3.Bilish jarayonining asosiy bosqichlarini izohlaydi.

4.Ta'lim jarayonining asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatadi.

3-savol bayoni.

Ta'lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma'noni anglatadi. Ya'ni bu: o'quvchilarda bilim, ko'nikmalar va malakalari hosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish; o'quvchilarning muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo'lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o'stirishdan iborat.

Ta'lim—insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Ta'lim jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malakalar tashkil qiladi.

Demak, o'quvchilar o'qish orqali bilim bilan qurollanadilar.

Bunda bilimning o'zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay bilish lozim. Buning uchun esa o'qituvchida ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

Ko'nikma mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisidir. Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko'nikma, malaka hosil bo'ladi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur. Shu jihatdan o'quv yurtlarida, maktablarda o'quvchilar o'rtasida bahslar, bellashuvlar, o'tkir zehnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, ikki tomonlama xarakterga egadir. O'qituvchining faoliyati tufayli ta'lim puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida. olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi.

Bola maktabgacha tarbiya yoshidayoq o'quv ishi bilan shug'ullana boshlaydi. U sonlar, harflar bilan, matnli o'qish jarayoni bilan tanishadi, sodir bo'layotgan tabiiy hodisalarning muhim xususiyatlarini ota-onasi va tarbiyachilari yordamida bilib oladi, hikoya va ertaklar tinglaydi hamda ularni boshqalarga aytib berishni o'rganadi.

Ammo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati hamon o'yin bo'lib qoladi, shuning uchun ham uning fikrlash faoliyatida his qilib bilish ko'proq ahamiyatga egadir.

Ta'limning boshlang'ich davrida o'qituvchi analiz-sintezdan ko'proq foydalanadi. Analiz narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Sintez jarayonida o'quvchilar o'rganilgan narsalar va hodisalarning ayrim qismlarini, elementlarini bir butun qilib birlashtiradilar. Sintez, analiz, taqqoslash, induksiya kabi usullar orqali o'quvchilar o'zlarida tushuncha hosil qilish imkoniga ega bo'lishadi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday holatda ta'lim jarayoni sodir bo'ladi?
3. Moddiy dunyoni bilish ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ekanligini tushuntiring.

4-savol bo'yicha darsning maqsadi: Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari va o'zlashtirish bosqichlarini tushuntirish. Ta'limning asosiy vazifalarini talabalar ongiga yetkazish. Ta'lim qonuniyatlari va ziddiyatlari haqida tushuncha hosil qilish. Ta'lim berishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari va o'zlashtirish bosqichlarini so'zlab beradi.
2. Ta'lim jarayonining vazifalari va bilim olishga ruhiy tayyorgarlikni tahlil qiladi.
3. Ta'lim jarayonining qonuniyatlarini izohlaydi.
4. Ta'lim jarayoni ziddiyatlarini tahlil qiladi.

4-savol bayoni.

O'qitish jarayoni ikki faoliyat — o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchinning faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan, o'quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikmalarini tekshirish, o'quv ishlariga

moyilligini uyg'otish, rag'batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir.

O'qituvchning faoliyati ta'lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o'qitadi, ta'lim beradi. O'quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, chunki u o'qituvchi bergan bilimni o'qib, tushunib oladi.

O'qitish jarayonining ikkinchi tomoni o'quvchining faoliyati bo'lib, u o'quv fani materiallarini o'zlashtirishdan iborat. O'qitish bilishdan farqli o'laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta'limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash — muayyan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o'quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o'sib boradi, ularda e'tiqod tarbiyalanadi.

Bunday o'qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o'rganish kerak, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Ta'lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari — asosi o'rganiladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyligga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda, ishlab chiqarishda qo'llay bilishga o'rgatadi. O'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo'lishi lozim.

Muallim bilimlarni o'rgatar ekan, o'sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarini ko'radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o'qituvchi materialni o'zida ham, uni o'qitish usullarida ham yangi jihatlarini ochadi. Xuddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o'ziga xos usuli shakllanadi.

O'qituvchi maktab o'quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo'llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo'lmay, o'quv jarayonining mantiqi shuni taqozo etadi. O'quvchilarning o'qituvchi sabog'ini o'zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Bilimlarni o'zlashtirish voqe'likdagi narsa va hodisalarni yozish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o'zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Idrok — borliqni odam ongida aks etishidir (biz daraxtni, odamni, hayvon va boshqalarni idrok qilamiz).

Idrok o'quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko'zlovchi jarayon bo'lmog'i kerak. O'qituvchi idrokn yoki bevosita kuzatishni yo'lga qo'yayotganida kuzatish manbalarini sinchiklab tanlaydi.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich — bilimlarni tushunish va umumlashtirish. Tushunchalarning hosil bo'lish jarayonida induktsiya va deduktsiya kabi fikrlash masalalari katta o'rin tutadi. Induktsiya — xususiylig hollardan umumiy qoidaga boradigan, deduktsiya esa — umumiydan xususiylig boradigan fikr yuritish yo'lidir.

O'quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich — bilimlarni mustahkamlash va qo'llash.

Mustahkamlashning mohiyati yangi materialni idrok qilish vaqtida hosil bo'lgan muvaqqat bog'lanishlarni puxtalashtirishdir. Mazkur jarayonda bo'sh va beqaror bog'lanishlar mustahkamlanib boradi.

O'quvchilar faolligini oshirish uchun materialni dastlabki mustahkamlash vaqtida materialga oid savollar qo'yish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o'quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan, turli xil mashqlar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish, ko'rsatmali qurollar, kompyuterlar ustida ishlashlaridan ham foydalanish mumkin. Materialning keyingi mustahkamlanishi uy vazifalarini bajarish jarayonida davom etadi. Materialning har bir keyingi darsda takrorlanib borishi, mavzu yoki bo'limning oxirida umumlashtiruvchi takrorlash o'tkazilishi hamda o'quv yilining oxiridagi takrorlash mustahkamlashning zaruriy elementidir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo'llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi, ularni amalda qo'llanish ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

Nazorat savollari:

1. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2. Ta'lim jarayonining vazifalarini izohlang.
3. Ta'lim jarayoni qanday ziddiyatlarga ega ekanligini tushuntirib bering.
4. Bilimlarni o'zlashtirish nimadan boshlanadi?
5. Bilim olishga ruhiy tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Didaktikaning qonuniyatlarini boshqa ijtimoiy qonuniyatlarga solishtirish va ularning o'zaro farqini, bog'liqligini va o'xshashligini aniqlash.

Ta'lim jarayonining mohiyati va uni takomillashtirish tamoyillari mazmunini aniqlash va tahlil qilish.

Didaktikaning kategoriyalarini o'rganish, tahlil qilish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Ta'lim jarayonining mohiyati va uni takomillashtirish tamoyillarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini amalda aniqlang.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Didaktikaning taraqqiyoti va asosiy muammolari.
2. Ta'lim jarayoni mohiyati va vazifalari.
3. Bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari.
4. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarining tasnifi.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Hozirgi davrdagi didaktikaning taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shgan mutafakkirlar ilmiy-nazariy fikrlarini aniqlash.
2. Didaktikaning metodologik asoslariga yangicha yondashuvni ilmiy dalillash.
3. Bilimlarni o'zlashtirish bosqichlarini asoslash.

4. Ta'lim qonuniyatlari va prinsiplarining tasnifini ilmiy dalillash.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 16 b.
2. Munavvarov A.K. – Pedagogika, T., "O'qituvchi" 1996 37 b.
3. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holikberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 56 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. T., 1999. 11 b.
2. Obshchiye osnovy pedagogiki. M., 2002. 75 b.

7-MAVZU: MAKTABDA TA'LIMNING MAZMUNI VA METODLARI.

Asosiy savollar:

1. Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha.
2. Ta'lim mazmuni aks ettiruvchi davlat hujjatlari.
3. Ta'lim metodlari va ularning tasnifi.
4. Ta'lim metodlaridan samarali foydalanish yo'llari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

O'quv reja, o'quv dastur, darslik, o'quv-tarbiyaviy ish, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, mavzu, o'quv material, ko'rgazmali qurollar.

Mavzuga oid muammolar:

1. O'quv reja va o'quv dasturning o'xshashlik taraflari bormi? Uni tahlil qiling izohlang.
2. Ta'lim mazmunida aks etayotgan hujjatlarni sanab o'ting. Ularning bir-biriga bog'liqlik tomonlarini va farqlarini tahlil qiling.
3. Ta'lim metodlari bilan tarbiya metodlarini birma-bir ayting.
4. Ta'lim metodlarini siz qanday ta'riflaysiz? O'z ta'rifingizni izohlang.

1 – savol bo'yicha darsning maqsadi:

Talabalarga maktabda ta'limning mazmuni haqida tushuncha beradi va uni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Maktabda ta'limning mazmunini tushuntiradi.
2. Maktabda ta'limning mazmunini asoslaydi.

1 – savolning bayoni:

Maktabda ta'limning mazmuni deganda o'quvchilar o'quv fanlarini o'rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar tushuniladi. Maktabda ta'limning mazmuni bevosita uning maqsadidan kelib chiqadi. Maktabda o'rganiladigan har bir fan insoniyat ijtimoiy – tarixiy tajribasining bir tomoni, qismidir. Ta'lim mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida

egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

A. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari;

B.Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;

V.O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktabda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir.

Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi o'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma'lumotning mazmunini bola hoxishiga bo'ysundirish» ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko'zga ko'ringan vakili Amerikalik faylasuf-pedagog Jon Dyuidir. Uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo'lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim. Shunday ekan, maktablarda hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv rejasi va dasturlarning bo'lishi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layoqatiga moslangan ma'lumotlar berilishi lozim.

Oktyabr to'ntarilishigacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududi VII-VIII asrlardan beri davom etib kelgan eski-“usuli qadimiya”, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan – “usul savtiya” maktablari, xat savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan.

1905 yildan so'ng, o'lkaning ba'zi yirik shaharlarida “jadid” maktablari paydo bo'la boshladi. Mazkur maktablarda savdo-sotiq ishlari uchun zarur bo'lgan ayrim fanlar (hisob, tibbiyot, geografiya va boshqalar) o'qitilar edi. Shunday qilib, maktablarning hammasi O'sha ijtimoiy tuzum-muhit talablaridan kelib chiqdi va shu davr iqtisodiy, ma'naviy maqsadlari uchun xizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lgan imonli, e'tiqodli yoshlarni tarbiyalab, yetishtirishdan iboratdir.

Bundan tashqari, maktablarda yoshlarga quruq ilmiy bilimlar berilmasdan ularga turmushda zarur bo'lgan xalq hunarmandchiligi, tabobat asoslari, odob-axloq yo'nalishlaridagi fanlarni ko'proq o'qitish talab etilmoqda. Maktablarda “odobnoma”, “islom tarixi va madaniyati”ning o'qitilishi joriy etilgan.

Xalq ta'limidagi bunday jumboqlarning ijobiy yechimi, jamiyatga, o'quv – tarbiya ishiga katta foyda keltirishi tabiiy.

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

Nazorat savollari:

1. Maktabda o'rganiladigan fanlarning mazmuni nimadan iborat?
2. Maktabda ta'limning mazmun mohiyatini izohlang.
3. Maktabda ta'limning mazmunini o'z tajribangizga asoslanib tushuntirib bering. Fikringizni yozma bayon eting.
4. Maktabda ta'limning mazmun mohiyatini asoslang.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklar haqida tushuntiradi. Ularning mazmunini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklar haqida tushuncha beradi.
2. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darsliklarning mohiyatini asoslaydi.

2-savolning bayoni:

O'QUV REJASI davlat hujjatidir. O'quv rejasi-barcha o'rta umumiy ta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinadigan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasi deb, o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

O'quv rejasi o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad-ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatishdir.

Maktablarning birligi o'z qoidalariga asoslanadi.(boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflar, umumiy o'rta ta'lim 1-9 sinflar).

Umumiy o'rta maktablarida o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o'qitilishi, ajratilgan soati, bolalarning bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og'ir-yengilligi, didaktik ahamiyati ham e'tiborga olinadi.

O'quv rejasiga kiritilgan fanlar birinchi navbatda umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta'limning ilmiyligi, g'oyaviylik hamda O'zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonni tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san'at va jismoniy tarbiya, sog'lom avlodning ma'naviy qiyofasi asosiy o'rinni egallaydi.

O'quv rejasida tabiiy fanlar – tabiiy jug'rofiya, biologiya, fizika, astronomiya, ximiya, matematika va informatika markaziy o'rinni egallaydi.

Ijtimoiy fanlar – tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar – ona tili, ingliz tili, rus tili va boshqa chet el tillari, badiiy va san'at asoslari– adabiyot, tasviriy san'at, musiqa va ashula; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir qatorda hamma sinflarda mehnat ta'limini o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

Bulardan tashqari o'quv rejasida ayrim tabiiy fanlar, ayniqsa, matematika, informatika, fizika fanlari, ayrim gumanitar fanlar bo'yicha ham o'quvchilarning

qiziqishi, hoxishlarini ko'niktirish, qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlar ko'rsatilgan bo'ladi.

O'QUV DASTURI. Har bir o'quv fani uchun o'quv dasturi tuziladi. O'quv dasturi o'quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturi har bir o'quv fanining o'qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturida o'quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga berilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi o'quv fanlarining mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi.

Ma'lum mavzu yuzasidan o'quvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi.

O'quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi:

1. *Dasturning qat'iyligi.* O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu ular har yili ko'rib chiqilishi kerak degan gap emas, aksincha, hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat'iy bo'lishiga erishmoq darkor. Dasturning qat'iyligi qat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egak, bu darsliklar uzoq yashashi va o'quv jarayonida uzoq foydalanilishi kerak.
2. *O'quv dasturida ilmiylik qoidasi.* Dasturga borlikni aniq, haqqoniy aks ettirgan ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli materiallar kiritiladi.
3. *O'quv materiallari mazmunini to'g'ri tanlash, fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to'g'ri uyg'unlashuviga alohida e'tibor beradi.*
4. *Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi.* O'quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o'rni ko'rsatib beriladi.
5. *O'quv dasturlarida tarixiylik qoidasi.* O'quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o'quv fanlarining xarakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o'qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o'qitishda fan olamidagi ma'lum bir ilmiy hodisa, qoida va qonuniyatlarning paydo bo'lishi, uning kelajak istiqbollariга oid ma'lumotlar berib o'tiladi.
6. *Dastur ikki usul bilan: ketma-ket va markazlashgan tarzda joylashtirilishi mumkin. Ketma-ket joylashtirilgan o'quv materiallarning har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo'ladi.*

Dasturning markazlashgan tuzilishida mazkur fanga tegishli o'quv materiali o'qilishning keyingi bosqichlarida murakkablashgan ko'rinishda takrorlanadi. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi dasturlari tuzilishi uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo'l-yo'riqlar – qisqacha uqtirish xati; ikkinchi bo'limda o'quv

materiallarining mazmunini; uchinchi bo'limda esa o'quvchilarning qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

DARSLIK- o'quv jarayonining zarur qismi. Ko'p vaqtlardan beri u o'qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Darslik – o'quvchilarning ikkinchi «muallimi». Chunki u, avvalo, o'quvchi uchun zarur qo'llanmadir. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o'quv fanlari yuzasidan o'quv qo'llanmalari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to'plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug'at kitoblari va h.k. lar shular jumlasidandir. O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ham darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash o'quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ulardagi ilmiy dunyoqarashning, axloq-odobning shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi. Maktab islohoti va xalq ta'limini qayta qurish darslik yaratuvchilari oldiga bir qator talablar qo'yadi:

1. Har qaysi o'quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan darajada bo'lishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta'kidlashi lozim.
3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'langan bo'lishi kerak.
4. Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo'lishi, ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.
5. Darsliklar o'quvchilar tushunishi oson bo'lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar aniq va qisqa bo'lishi kerak.
6. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi, o'sha sinf o'quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo'lmog'i lozim.

Ilgarigi davrlarda Ovrupoda va g'arbda maktab, dorilfununlarda ilohiyot asosiy fanlardan biri hisoblangan. Mana shular asosida yoshlarga yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob, saxovat va razolat kabi eng muhim axloqiy, hayotiy, falsafiy tushunchalar o'rgatilgan. Hozirgi davrda bizning maktablarda, o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan axloq-odob fani o'sha ilohiyot darslarining asosini tashkil etgan.

Maorif – ta'lim sohasidagi ming yillik madaniyatimiz xazinalarini jamlagan eski yozuvni o'rganish ham didaktik ta'lim mazmunidagi yangilikdir.

Nazorat savollari:

1. O'quv dasturi qanday hujjatga asoslanib ishlab chiqiladi?
2. Darslik yaratuvchilar oldiga qo'yiladigan talablar necha xil?
3. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini izohlang.
4. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini taqqoslang.
5. Maktabda o'quv reja, o'quv dastur va darslikning mohiyatini asoslang.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Mutaxassislik fanidan o'quv reja, ishchi dastur tuzing.

Darslik va o'quv qo'llanmaga qo'yiladigan talablarni aniqlang.

Ta'lim metodlarini o'rganib amaliy tajribangizda sinab ko'ring.

Ta'lim metodlarining shaxs kamolotidagi o'rnini izohlang.

Ta'lim metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganing.

Har bir ta'lim metodini amalda tatbiq etib ko'rishni o'rganing.

Har bir ta'lim metodini boshqa metodlar bilan amalda taqqoslang.

Ta'lim metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini amalda aniqlang.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Maktabda ta'limning mazmuni haqida tushunchani namunali dastur beradi.
2. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi davlat hujjatlariga o'quv reja, dastur, darslik kiradi.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Maktabda ta'limning mazmuni milliy va umuminsoniy tarbiya texnologiyasining ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish.
2. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi pedagogika fanining rivojiga hissa qo'shgan sharq allomalarining ta'limotlarini ilmiy tahlil etish.
3. Ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishning ilmiy asoslarini yaratish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 38 b.
2. Munavvarov A.K. – Pedagogika, T., "O'qituvchi" 1996 75 b.
3. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holikberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 75-85 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. T., 1999.17 b.
2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.1992y.64b.

8-MAVZU: TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Asosiy savollar:

1. Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida tushuncha.
2. Dars va unga qo'yiladigan talablar.

3. Dars turlari va tarkibiy qismlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Talimni tashkil etish shakllari, sinf dars tizimi, asosiy shakllar, dars, dars turlari, tarkibiy qismlari, noan'anaviy dars, o'quv ishlarini rejalashtirish, kalendar mavzu rejasi, reja- matn, dars kuzatish va tahlil.

Mavzuga oid muammolar:

Maktabning tarixan taraqqiy etish davrida ta'limni tashkil qilish shakllari turlicha bo'lgan. Ta'limni tashkil etish shakllari ma'lum ijtimoiy tuzum va shu tuzumning manfaatlariga mos holda shakllangan. Turli davrlardagi ta'limni tashkil etish yuzasidan bayon qilingan qarashlarni, nazariyalarni o'rganib chiqing. Ularni bir-biri bilan taqqoslang. Siz eng ma'qul qarash deb qay birini hisoblaysiz? Bugungi kunda ta'lim shakllari qaysi olimning nazariyalariga asoslangan holda tashkil etilmoqda? Fikringizni izohlang.

Ta'limni tashkil etish shakllari turlicha bo'lib, sinf-dars tizimi asosiy shakli deb e'tirof qilinadi. Endilikda mustaqil jumhuriyatimiz xalq ta'limi oldiga qo'ygan talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda maktab ta'limini tashkil qilishning yangi-yangi shakllari yaratilmoqda. Ta'limni tashkil etishning yana qanday shakllarini bilasiz? Ularni keltirib o'ting. Bir-biriga taqqoslab, afzallik tomonlarini va kamchiliklarni tahlil qiling. Sizningcha zamonaviy dars nimasi bilan boshqalaridan farq qilishi lozim?

1-savol bo'yicha darsning maqsadi: Ta'limni tashkil etish shakllari muammosining pedagogika fanida ilmiy asoslanishini tushuntirish, talabalarda darsni tashkil etish va o'tkazishga qiziqish hosil qilish, ta'limning qo'shimcha shakllarini darsga bog'lagan holda bayon etish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida asosiy tushunchalarni aytib beradi.
2. Sinf dars tizimini izohlaydi.
3. Ta'limni tashkil etishning asosiy va qo'shimcha shakllarini taqqoslaydi.

1-savolning bayoni:

Ta'limni tashkil etish shakllari turli davrlarda turlicha bo'lgan. XVI-asrning oxiri va XVII-asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tarixda birinchi bo'lib maktab ta'limida sinf-dars tizimini yaratdi.

Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo'lmadi. Ularda oktyabr to'ntarishiga qadar o'rta asr maktablariga xos ta'lim tizimi davom etib keldi.

Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan ma'lum miqdordagi o'quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o'qituvchining rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim mashg'ulotlariga aytiladi.

Dars- o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli.

Dars- o'quv ishlarining markaziy qismi.

Hozir maktablarimizda qo'llanilayotgan sinf- dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. *Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko'ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo'ladi.*

2. *Dars mashg'uloti asosan 45 daqiqaga mo'ljallangan bo'lib, qat'iy jadval asosida olib boriladi.*

3. *Dars bevosita o'qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.*

4. *Dars o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta'lim tizimining bir qismi sifatida albatta tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.*

Ayni paytda, maktablarimizda ta'limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda:

1. *Sinf-dars shaklidagi olib boriladigan mashg'ulotlar.*

2. *Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar.*

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar o'qituvchining kundalik o'quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni o'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg'ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o'quv ustaxonasi, tajriba uchastkalari va maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o'tkazish yo'li bilan olib boriladi.

Ta'limning qo'shimcha shaklidan biri amaliy-tajriba mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulot sinf-dars tizimi shaklida olib borilmaydigan mashg'ulot turi bo'lib, u maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba uchaskasida olib boriladi. Bu mashg'ulot ikki yo'l bilan olib boriladi:

Amaliy tajriba.

Ekskursiya.

Ta'limning qo'shimcha shakllari seminar va amaliy tajriba mashg'ulotlari biror fanni chuqurroq o'rganish uchun yoki biror yangi sohani o'rganish uchun o'tiladigan qo'shimcha dars mashg'ulotidir.

Nazorat savollari:

Turli davrlardagi olimlarning ta'limni tashkil etish yuzasidan qarashlarini o'rganib chiqing.

Sinf-dars tizimi ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida ekanligini izohlang.

Ta'limni tashkil etishning qo'shimcha shakllari va ularning ahamiyatini aytib bering.

2- savol bo'yicha darsning maqsadi:

Dars haqida to'la ma'lumot berish, unga qo'yiladigan asosiy talabni tushuntirish.

Darsning ijodiy jarayon ekanligini va unda o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'rnini ko'rsatib berish. Darsni ijodiy tashkil etishga qiziqish hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Darsning o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda faoliyat yuritish jarayoni ekanligini tushuntiradi.
2. Darsga qo'yiladigan talablarni aniqlab beradi.
3. Darsga qo'yiladigan talablarning ahamiyatini izohlaydi.

2-savolning bayoni:

Dars o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar egallashlarida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan mashg'ulot shakli hisoblanadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatlarini yuritadilar. O'qituvchi qanchalik faollik ko'rsatsa, o'quvchilar ham shu darajada ongli ishtirok etishlari zarur. Olimlar, ilg'or o'qituvchilar darsini ijodiy jarayon deb hisoblagan holda, uni doimiy takomillashib borishini ta'kidlaydilar. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Turli- tuman fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berish lozim deyish mumkin:

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim.
2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim.
3. Har bir dars turmushga amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim.
4. Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan unumli foydalangan holda olib borilmog'i lozim.
5. Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.
6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.
7. Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.
8. Dars mashg'ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o'quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish hisobga olinadi.
9. Har bir darsda mavzuning xarakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va undan foydalanmoq imkoniyatini izlamoq lozim.

Nazorat savollari:

1. Darsda o'qituvchi va o'quvchining hamkorligini izohlab bering.
2. Darsga qo'yiladigan talablarni bayon qiling.
3. Darsni tashkil qilishda o'qituvchining rolini ifodalab bering.
4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish yuzasidan o'z fikr-mulohazalaringizni tushuntiring.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi:

1. Dars turlari va tarkibiy qismlari to'g'risida to'la ma'lumot berish.
2. Har bir dars turidan namunalar keltirish va misollar bilan dalillash.
3. Darsni tahlil qilishga va baholashga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Fanning xususiyatlari va mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda turli ko'rinishdagi darslar bo'lishini farqlaydi.
2. Dars turlari va maqsadlarining uzviy bog'liqligini aniqlaydi.
3. Har xil dars turlari rejalarini solishtirib ko'radi.

3- savolning bayoni:

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishini quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1 soatlik darsga mo'ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg'ulot turi **dars turlari** deb yuritiladi. Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O'tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasi birga qo'llanilishi)

Ma'lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining unsurlari bo'lishi mumkin.

Masalan, maktablarimizda eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

- a) Yangi bilimlarni bayon qilish.
- b) Yangi bilimlarni mustahkamlash.
- v) Yangi bilimlar ustidan mashq qilish.
- g) Yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustidan mashq o'tkazish uyga vazifa kabi boshqa unsurlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir unsurlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.

Nazorat savollari:

1. Dars turlarini tahlil qiling.
2. Har bir darsning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqing. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni bayon qiling.
3. Dars bosqichlarini izohlang.
4. Har bir bosqich keyingisidan nimasi bilan farq qilishini ifodalab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Dars va amaliy mashg'ulotlarni taqqoslab ko'ring. O'xshash va farq qiladigan tomonlarini tahlil qiling.
2. Sinf va unda olib boriladigan darslarning ta'lim-tarbiyaviy mohiyatini asoslab bering.
3. Darsga qo'yiladigan talabni o'z fikringiz bilan yozma ifodalab bering.
4. Darsga qo'yiladigan talablar ko'proq kimga (o'qituvchi yoki o'quvchi) daxldor ekanligini tushuntirib bering.
5. Darsda ta'lim va tarbiyaning milliy asoslariga qanday qilib amal qilishni ma'qul ko'rasiz.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Ta'limni tashkil etishning shakllari haqida tushunchani talabalarga o'rgatish.
2. Dars va unga qo'yiladigan talablarni bilish.
3. Dars turlari va tarkibiy qismlarini aniqlash.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Ta'limni noan'anaviy tashkil etish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.
2. Darsni tashkil qilishda pedagogik texnologiyalarning o'rnini ko'rsatib berish.
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil qilishning tizimini va loyihasini ishlab chiqish, afzalliklarini aniqlash.
4. Darsning zamonaviy shakllarini qo'llashning ilmiy asoslarini yaratish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998. 27 b.
2. Maxmutov M. Hozirgi davrda dars. M. 1986.12 b.
3. Munavvarov A.K. Pedagogika . T., "O'qituvchi " 1996.44 b.
4. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., 1997. 48 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Iлина T.A. Pedagogika, M., 1985.44 b.
2. R.Mavlonova, O.To'rayeva. Pedagogika. T., 2002. 52 b.

9-MAVZU: O'QUVCHILAR BILIMINI TEKSHIRISH, NAZORAT QILISH VA BAHOLASH

Asosiy savollar:

1. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyati.
2. Maktabda baho me'yorlari va reyting tizimining mohiyati

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Bilim, baho, baholash, bilimlarni joriy tekshirish, bilimlarni oraliq tekshirish, bilimlarni yakuniy baholash, baholash shakllari.

Mavzuga oid muammolar:

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari tekshirilib, baholanib boriladi. O'quvchi fanni, mavzuni, qanday o'zlashtirganini, yutuq va kamchiliklarini bilib boradi. Baho (obyektiv) haqqoniy qo'yilgandagina ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

O'qituvchining har qanday qo'ygan bahosini haqqoniy deb hisoblaysizmi? Agar nohaqlik bo'lsa, u qanday ko'rinishlarda zohir bo'ladi?

An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimi 5 ballik baho me'orlari bilan o'lchangan. Hozirgi paytda reyting ballari joriy etildi. Qaysi biri o'quvchilar bilimini aniqlik va haqqoniylik asosida baholay oladi? Ikki xil baholashning yutuq va kamchiliklarini izohlang.

O'qituvchi bir o'quvchining bahosini asossiz tarzda yuqori ko'tarar, boshqa bir o'quvchining bahosini pasaytirar edi. Siz bu adolatsizlikka qanday qaraysiz? O'qituvchidan to'g'ri baho qo'yishni talab qilgan bo'lar edingizmi? Agar talab qilsangiz qanday shaklda bajarasiz.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini talabalarga tushuntiradi. Ularda pedagoglik kasbiga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini tushuntiradi.

O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini asoslab beradi.

1-savolning bayoni:

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'lim berish ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham, o'quvchi ham ijobiy xarakteristikaga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quvchi nimani bilish va nimani tushunmasligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilgan-u, qaysi biri yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchiga o'quv materialida u nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani tushunarli bo'ladi. Tekshirish o'quvchining o'rganilayotgan materialni tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish darajasini aniqlaydi. O'quvchi o'z bilimlarining ijobiy xarakteristikasiga, maktabda va uydagi ishining uslubini takomillashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi. Qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baho unda hamisha o'quvchi sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatini, tuyg'ularini o'qituvchi uning fel-atvoridagi irodalilik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarni shakllantirish borasida ustalik bilan ishlatadi.

Nazorat savollari:

1. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning ta'lim berishdagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning o'zlashtirishdagi ahamiyatini tushuntiring.
3. Bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyatini sharhlab bering.
4. O'quvchilarning bilimlarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bering.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Bilimlarni tekshirish turlari va maktabda baho me'yorlari haqida talabalarga tushuncha beradi. Ularda o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlari:

- *O'quvchilar bilimini tekshirishning mohiyatini tushuntiradi.*
- *Nazorat turlarini farqlaydi.*
- *Bilimlarni baholashning ahamiyatini ko'rsatadi.*

- *Maktabda baho me'yorlarini sharhlab beradi.*
- *O'zlashtirmaslikning sabablarini tushunib yetadi.*

2-savol bayoni:

Bilimlarni tekshirishning quyidagi turlari bor:

Har darsda tekshirish. O'qituvchi har bir darsda o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorligini tekshiradi, bolalarning butun dars davomida o'quv materialini mazmunini qanday o'zlashtirayotganliklarini nazorat qilib turadi.

Tematik tekshirish butun temani o'zlashtirilishini nazorat qilib borishni ta'minlaydi. O'quv dasturining o'rganilgan mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Bu xildagi tekshirish materialni tizimiylashtirishda juda katta ahamiyatga egadir. Darsda qisqa vaqt mobaynida shunaqa savollar berish yoki shunaqa vazifalarni taklif etish kerakki, o'quvchi o'zini ularda mavzuning asosiy mazmunini, asosiy g'oyalarini ko'rib turganday his qilish kerak.

Yakunlovchi tekshirish o'quvchilarning o'quv yilining ma'lum davrida - bir necha hafta, o'quv choragi, yarim yil, bir yil ichida, bir necha yil davomida va to'qqiz yillik yoki o'rta ma'lumot bo'yicha olgan bilimlari tekshiriladi. Yakuniy baho maktab o'quvchisining chorak yoki yil davomidagi ishining natijasini aks ettiradi.

Maktabda baho normalari

Hozirgi vaqtda bizning maktabimizda besh ballik sistemasi qabul qilingan.

«5» (a'lo) baho – dastur materialini chuqur va to'la tushungan, o'rganayotgan qoidalarni mustaqil ravishda tushuntirib bera olgan, savolga mantiqiy va adabiy to'g'ri formada, ishonarli va ravshan javob bergan, xato qilmagan o'quvchiga qo'yiladi.

«4» (yaxshi) baho - dastur materialini chuqur va to'g'ri o'zlashtirgan, ammo javobida noaniqliklarga hamda javobining mazmunida va tuzilishi shaklida unga muhim bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan o'quvchilarga qo'yiladi.

"3" (o'rta) baho - o'quv materialini o'zlashtirgan, lekin tushuntirganda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchiga qo'yiladi.

"2" (qoniqarsiz) baho - bilimni, o'quv materialini o'zlashtirmagan o'quvchilarga qo'yiladi.

«1» (juda yomon) baho - qachonki, o'quvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda qo'pol xatolarga yo'l qo'ygan hollarda qo'yiladi.

O'zlashtirmaslikning bir qancha sabablari mavjud:

1. Bolada ish qobiliyatining, intilishning va diqqat e'tiborning yetishmasligi.
2. Bilimlarni puxta o'rganmay o'tkazib yuborganligi.
3. Materialdagi muhim belgilarni ajrata olmaslik, asosiy va ikkinchi darajali narsaning farqiga bormaslik.
4. Mazkur o'quv faniga qiziqish yo'qligi.
5. O'quvchining oilada yoki o'z tengqurlari orasida noqulay ahvolda qolishi.

Bilimlarni nazorat qilish, tekshirish va baholashning yangi mohiyati.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasida birmuncha o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim sohasiga o'quvchilar bilimlarini test- reyting sinovi orqali baholash usuli kirib keldi. O'quvchilarning olgan bilimlarini test orqali bilish, bilim darajasini tekshirish yaxshi samara berdi. Yil mobaynida bu samara tajriba maktablariga joriy qilinmoqda. Test reyting nazorati orqali o'quvchilarni baholashda o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga e'tibor beriladi. O'quvchi, o'qituvchi faoliyatini jipslashtiradi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini yaxshilaydi. Kundalik nazoratdan keyin o'quvchi fanlarni o'zlashtirishga qiziqish uyg'onadi. O'qituvchi uchun yakuniy baholash, baho berish kundalik nazoratlarini yakunidan kelib chiqqan holda bo'ladi. Bunda o'quvchi aniq bahoga ega bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Bilimlarni joriy tekshirishning mohiyatini yoritib bering.
2. Bilimlarni yakuniy tekshirish va baholashning ahamiyatini bayon eting.
3. O'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mezonini yozma ravishda izohlab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Bilimlarni joriy, tematik va yakuniy tekshirishning keng tarqalgan shakllarini (yakka tartibda va yoppasiga so'rash) sharhlab bering.
 Bilimlarni tekshirish turlarining mohiyatini asoslab bering.
 Bilimlarni tekshirishning talablarini yozma ravishda izohlab bering.
 O'quvchilarning bilimlarini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

7. O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholashning ahamiyati dastur asosida hosil qilinadi.
8. Maktabda baho me'yorlari va reyting tizimining mohiyatini izohlash.

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

O'quvchilar bilimini tekshirish, nazorat qilish va baholash yuzasidan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bilimlarni baholashning yangi, qulay me`yorlarini joriy qilish.
O`quvchilar o`zlashtirish mezonlarini aniqlash bo`yicha metodik ko`rsatmalar yaratish.
Baholashning yangi, zamonaviy usullarini kashf etish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998.18 b.
2. Maxmutov M. Hozirgi davrda dars. M. 1986. 24 b.
3. Munavvarov A.K. Pedagogika . T., "O`qituvchi " 1996.,58 b.
4. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., 1997. 44 b.

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. Ilina T.A. Pedagogika, M., 1985.65 b.
2. R.Mavlonova, O.To`rayeva. Pedagogika. T., 2002.42 b.

10-MAVZU: MAKTABNI BOSHQARISH VA UNGA RAHBARLIK QILISH.

Asosiy savollar:

1. Boshqarish haqida tushuncha
2. Ta`lim tizimini boshqarishda vakolatli davlat organlarining huquqlari
3. Maktabni boshqarish tizimi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Boshqarish, rahbarlik qilish, vakolatli tashkilotlar, boshqarish omillari, ichki boshqarish, nazorat qilish, maslahatli boshqarish.

Mavzuga oid muammolar:

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo`lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Boshqaruv jarayonida bir necha uslublar, omillarga tayanib ish ko`riladi. Boshqaruv uslublarini, omillarini o`rganib chiqing. Har bir uslubni tahlil qiling. Sizningcha jamoani qaysi uslubda boshqarish ma`qulroq?

Boshqaruv omillarini o'rganib chiqing. Har bir omilni ahamiyatiga qarab joylashtiring. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiling. Jamoani demokratik usulda boshqarishda boshqaruv omillarining o'rni nimada? Javobingizni asoslang.

Boshqaruvning samarali bo'lishi bir necha qoidalarga bog'liq. Bu qoidalar nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Ularning ahamiyatini tahlil qiling.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: xalq ta'limi tizimini boshqarish haqida talabalarga tushuncha beradi. O'zbekistonda xalq ta'limining rivojlanish xususiyatlarini tushuntiradi. Boshqarishga qiziqish hosil qildiradi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xalq ta'limi tizimini boshqarishning mohiyatini tushuntiradi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda xalq ta'limini boshqarish haqidagi moddalarni izohlab beradi.
3. Ta'lim tizimini boshqarishning vakolatli tashkilotlari vazifalarini tahlil qiladi.

1- savol bayoni:

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo'lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodi sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mehnat aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat.

Boshqaruv xalq manfaati ko'zlangan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O'z-o'zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan, millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Zotan, jamiyatimiz rivoji uchun boshqaruv hal qiluvchi kuchga ega bo'lmog'i lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunida ko'rsatib berilgan. Ular quyidagilardir:

25–modda: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish:

-ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash:

-boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish

-qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

-davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;

-davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

-davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash:

-davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash:

-ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash:

26-modda: Ta'lim boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarning huquqiy doirasi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasiga quyidagilar kiradi:

-ta'lim sohasida yagona siyosatni ro'yobga chiqarish;

-ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish;

-davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash:

-davlat ta'lim muassasalarini moliyalash - Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi:

32-modda: Ta'limni rivojlantirish fondlari.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan chet el yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin. Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasi maorifiga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlarga, litseylarga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi.

Nazorat savollari:

1. Boshqarish va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasiga nimalar kiradi?
3. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini boshqaruvchi vakolatli tashkilotlarning vazifalarini yozma ifodalab bering.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarish haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini tushuntirib beradi.
2. Xalq ta'limini boshqarishdagi muhim omillarni izohlaydi.
3. Boshqaruvdagi qoidalarni taqqoslaydi.

4. Boshqarishdagi muhim omillar va maktabni ichki boshqarishning mohiyatini sharhlab beradi.

2-savolning bayoni:

Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob'yektlarga ta'sir ko'rsatishning u yoki bu yo'nalishlarini tushunmoq kerak. *Rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash, nazorat qilish, hisob-kitob qilish omillari boshqaruv omillari hisoblanadi.*

Rejalashtirish-boshqariluvchi ob'yektlarni rivojlantirish va modellashtirishni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. *Tashkil qilish* esa ishlab chiqarish ob'jektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlash hamda shakllantirishdir. *Sozlash*-tirishning turli elementlari o'rtasidagi nisbatni tutib turishga, boshqariluvchi obyekt ishlayotganda reja-topshiriqlardan chetga chiqib ketishga yo'l qo'ymaslikka qaratilgandir. Bundan tashqari, har bir xodimning faoliyatini sozlab borishni ham anglatadi. *Nazorat qilish*-ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini rejaga qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishda, shuningdek, har bir xodim faoliyatini tekshirishdan iboratdir.

Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Bu boshqarishning muhim shartlaridan biridir. Boshqarish tashkilotchilik juda katta ahamiyat kasb etadi. Tashkilotchilik ijro bilan dialektik birlikni tashkil etadi. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan direktiv topshiriq va hujjatlarning qat'iy va so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan keyingi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning shakl, metod va yangi usullarini belgilash imkonini beradi.

Boshqarishning rejalilik qoidasi- boshqarish turidagi qoidalarining eng muhimi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktab boshqaruvida muayyan turi bo'lishi kerak. Buning ma'nosi avvalo shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir –biriga aloqasi bo'lmagan tadbirlar yig'indisidan iborat emas.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug'ullanuvchi kishilar (Maktab direktori uning o'rinbosarlari, tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, uslubiy birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruvchilik jamosini tashkil etadi.

Maktabda boshqarish tizimi asosan ikkiga bo'linadi:

Maktab rahbarlari va o'qituvchilar, tarbiyachilar yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, uslub birlashmalarining a'zolari, texnik xodimlar.

Maktabga o'qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to'g'ri tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida quyidagi qoidalarga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. **Maktab xodimlarini tanlashda ularning siyosiy bilimini, halolligini, ishini bilishini hisobga olish zarur.** Bu o'rinda ishning ko'zini bilish, ishchanlik, uyushqoqlikni ta'minlash boshqaruv apparati ishidagi asosiy vazifa ekanligini anglash lozim.

Demokratiyalash qoidasi. Xalq ta'limi tirishi va maktabni boshqarishning eng muhim qoidasi- demokratiyalashtirish. Hozirgi mustaqillik davrida jamiyatni yanada demokratlashtirish muhim va dolzarb muammolardan biridir.

Boshqarishning ilmiyligi hozirgi bozor iqtisodi sharoitida ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini tabora to'laroq bilib borish bilan belgilanadi.

Boshqarishning jamoatchilik qoidasi va mas'uliyatlar to'g'ri boshqarish va rahbarlik qilishning oliy bosqichidir. Bu qoida boshqarish tizimida salmoqli o'rinni egallashi bilan birga ommaning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazorat savollari:

Boshqaruv omillarini sanab chiqing.

O'zingiz bilgan maktab direktorining boshqaruvchilik faoliyatini kuzating.

Faoliyatida qanday boshqaruv uslublarini qo'llashini, boshqaruv omillariga asoslanishini tahlil qiling.

Boshqaruv qoidalarining ahamiyatini tahlil qiling.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Guruh rahbaringizning faoliyatini kuzating. Qanday uslubda jamoani boshqarishini tahlil qiling.

O'zingiz o'qigan maktab faoliyatini kuzating. Maktabni ichki boshqarish tirishini tahlil qiling.

Ishlab chiqarishda boshqaruv omillarining ahamiyatini izohlang.

Mavzu bo'yicha ilmiy xulosalar:

1. Boshqarish haqida tushuncha o'rgatish.
2. Ta'lim ishini boshqarishda vakolatli davlat organlarining huquqlari таълим то'g'risidagi qonunga asoslanadi

Mavzu bo'yicha yechimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Boshqaruvning samarali yo'llarini ko'rsatib beradigan tizim yaratish.
2. Boshqaruv omillaridan foydalanish, qoidalarni qo'llashning tizimini yaratish.
3. Maktab direktorlari uchun maktabni ichki boshqarish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Maktabda o'z-o'zini boshqarishning nazariy asoslarini yaratish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1998. 24 b.
2. Munavvarov A.K. Pedagogika. T., "O'qituvchi " 1996.46 b.
3. Tursunov I. Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T., 1996. 24 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ilina T.A. Pedagogika, M., 1985.34b.
2. R.Mavlonova, O.To'rayeva. Pedagogika. T., 2002. 68 b.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- AMALIY MASHG'ULOT: PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI.

Dars maqsadi: Pedagogika fani, pedagogika fanining asosiy tushunchalari, pedagogikaning metodologik asosi, pedagogika fanlar tizimii va boshqa fanlar bilan aloqasi haqida tushuncha berish, talabalardagi o'qituvchilik kasbiga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, har bir talabada komil inson bo'lish uchun yetarli imkon borligiga ishonchni tarkib toptirish. Ilmiy-tadqiqot metodlarining turlarini sharhlab beradi. Ilmiy-tadqiqotlar olib borishga qiziqishni oshiradi

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Pedagogika fanining mohiyatini tushuntiradi.
2. Pedagogikaning maqsadini izohlaydi.
3. Pedagogikaning vazifalarini umumlashtiradi.
4. O'qituvchilik kasbi haqida xulosa chiqaradi.
5. Ilmiy-tadqiqot metodlarini ta'riflaydi.

Kerakli jihozlar: darslik, test ishlanmalari, xalq og'zaki ijodi namunalari, pedagogik tushunchalar izohlangan jadval, maxsus pedagogika namunalari, ko'rgazmali qurollar.

Ishni bajarish tartibi:

1. Milliy va umuminsoniy tarbiyaning bog'liqligi va o'ziga xos jihatlarini tizimga solish;
2. Pedagogikaning hozirgi sharoitdagi holatini tavsiflash;
3. Pedagogika fani haqida mavjud bo'lgan tushunchalarni yozma bayon etish;
4. Pedagogika fani taraqqiyotida boshqa fanlar taraqqiyotining o'rni va ta'sirini izohlab berish;
5. G'arb va Sharq pedagogikasini taqqoslab, ular o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni izohlash;
6. Har bir metodning o'ziga xos xususiyatini tahlil qilish.
7. Turli metodlarni alohida va birga qo'llagan holda tajribalar o'tkazish.
8. Mashg'ulotga yakun yasash.
- 9.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 y.,12 b.
2. Munavvarov A.K. – Pedagogika, T., "O'qituvchi" 1996 y.,45 b.

3. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holikberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 y., 35 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. T., 1999., 11 b.
2. Obshiyе osnovo' pedagogiki. M., 2002. 67 b.

**2-AMALIY MASHG'ULOT: O'ZBEKISTONDA TA'LIM Turining
TARAQQIYOTI.**

Dars maqsadi: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyordash Milliy dasturi haqida tushuncha berish, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyordash Milliy dasturini tahlil qilishga o'rgatish va bu qonunlarning mohiyatini yoritish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mazmunini yoritib beradi.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mohiyatini izohlaydi.
3. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini tahlil qiladi.
4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini taqqoslaydi va tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, ta'lim va tarbiyaga oid barcha hujjatlar, qonunlar va h.z.

Ishni bajarish tartibi:

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini o'rganish;
2. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini tahlil qilish;
3. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining mazmunini yoritib berish;
4. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etilishini isbotlash;
5. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini boshqa qonun, hujjatlar bilan taqqoslash;
6. Mashg'ulotga yakun yasash.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi, T., 1999. 16 b.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., 1998. 28 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 1992.

2. G'aybullayev va boshqalar, Ijtimoiy islohotlar va ta'lim tarbiya, T., 1995. 50 b.

3-AMALIY MASHG'ULOT: TARBIYA JARAYONI, QONUNIYATLARI VA METODLARI.

Dars maqsadi: Talabalarga tarbiya qonuniyatlari va prinsiplari haqida tushuncha berish, tarbiya prinsiplari va qonuniyatlarini tahlil qilishga o'rgatish, talabalarda kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirish. Tarbiya metodlarining mohiyatini tushuntirish. Metodlarning nazariy asoslarini amaliyotga bog'langan holda talabalar ongiga yetkazish. O'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1) Tarbiya qonuniyatlarini o'rganadi.
- 2) Tarbiya qonuniyatlarini tahlil qiladi.
- 3) Tarbiya prinsiplarini o'rganib, solishtiradi.
- 4) Tarbiya prinsiplari o'rtasidagi bog'liqlikni, farqni va o'xshashlikni aniqlaydi.
- 5) Tarbiya metodlarining o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab beradi.
- 6) Tarbiya metodlarining boshqa metodlardan farqini ajratib ko'rsatadi.
- 7) Tarbiya metodlarining ahamiyatini tahlil qiladi.

Kerakli jihozlar: darslik, test ishlanmalari, xalq og'zaki ijodi namunalari, ko'rgazmali qurollar, tarbiya metodlarining tasnifi keltirilgan plakatlari, tarqatma materiallar, o'quv qo'llanmalari. va h.k.

Ishni bajarish tartibi:

- Tarbiya qonuniyatlarini o'rganib, tahlil qilish;
- Tarbiya qonuniyatlarini boshqa qonuniyatlar bilan solishtirish;
- Tarbiya prinsiplarini o'rganish;
- Tarbiya prinsiplarining o'zaro bog'liqligini aniqlash;
- Tarbiya prinsipini hayotga tatbiq etilishini tahlil qilish;
- Tarbiya metodi tushunchasini o'rganish;
- Tarbiya metodlarining mohiyatini aniqlash;
- Tarbiya metodlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish;
- Har bir tarbiya metodining ta'rifini o'rganish;
- Har bir tarbiya metodini boshqa metodlar bilan taqqoslash;
- Tarbiya metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini aniqlash;
- Mashg'ulotga yakun yasash;

Asosiy adabiyotlar:

1. Abu Rayxon Beruniy. Ruhiyat va ta'lim - tarbiya haqida T.1992.,34 b.

2. Munavvarov A.K. Pedagogika, 1996 y, 45 b.
3. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 y., 28 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Buyuk kelajak sari T.1998.,22 b.
2. I.A.Karimov. Turkiston gazetasi muxbirining savollariga javoblari 1999 yil. 3 fevral.
3. Barkamol avlod orzusi. T. 1999 27 b.

4-AMALIY MASHG'ULOT TARBIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI.

Dars maqsadi: Talabalarga tarbiyani asosiy yo'nalishlari mohiyatini ochib berish. Talabalarda axloq normalariga amal qilish malakalarini oshiradi

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Axloqiy tarbiyaning mohiyatini tushuntirib beradi.
2. Axloqiy tarbiyaning mazmunini sharhlab beradi.
3. Iqtisodiy va ekologik tarbiyaning mohiyatini tushuntiradi.
4. Nafosat tarbiyasi haqida tushuncha beradi.
5. Jismoniy tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyatini aniqlaydi.

Kerakli jihozlar: axloqiy tarbiyaga oid ko'rgazmali jihozlar. Iqtisodiy va ekologik tarbiyaga oid o'quv materiallari, ko'rgazmali vositalar. Adabiyot namoyondalarining asarlaridan namunalar. Jismoniy tarbiya va sport haqidagi davlat hujjatlaridan namunalar.

Ishni bajarish tartibi:

- Axloqiy tarbiyaning mohiyatini tushunish;
- Maktabda axloqiy tarbiya berish tizimini aniqlash;
- Maktabda o'quvchilarni axloqiy fazilatlarga yo'naltirish metodikasini o'rganish;
- Axloqiy fazilatlarga yo'naltirishda ota-onalar qo'mitasining rolini aniqlash;
- Iqtisodiy va ekologik tarbiyaning ahamiyatini aniqlash;
- Iqtisodiy va ekologik muammolarni o'rganib chiqish;
- Maktabda iqtisodiy va ekologik tarbiya berish tizimini aniqlash;
- Oilada iqtisodiy tarbiya berish yo'llarini aniqlash;
- Milliy pedagogikaning yutuqlariga tayanib, iqtisodiy tarbiya berish yo'nalishlarini o'rganish;
- Maktabdan tashqari ishlarda iqtisodiy va ekologik tarbiyani amalga oshirish metodikasini o'rganib chiqish.
- Maktabda o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berishning tizmi aniqlab olinadi.
- Nafosat tarbiyasi berishga mo'ljallangan maxsus fanlarni o'qitishning xususiyatlarini qayd etadilar.
- Nafosat va nafosat tarbiyasi tushunchalarining mazmunini farqlaydi.

- Nafosat tarbiyasini berishda tabiat manzaralarining ahamiyatini tahlil etish.
- Vatanimizning go'zal tabiat manzaralari ta'siri ostida nafosat his-tuyg'ularini shakllantirish mohiyatini o'rganadi.
- Tasviriy san'at muzeylari va ko'rgazma zallarini kuzatib, estetik tuyg'ularini takomillashtirib boradi.
- Jismoniy tarbiyaning inson kamolotiga ta'sirini aniqlash.
- Jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida qaysi allomalar ibratli fikr aytib berganlari tahlil etiladi.
- Mashg'ulot yakuni.

Asosiy adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997 y. 23 b.
2. Munavvarov A.K. – Pedagogika, T., "O'qituvchi" 1996 y.49 b.
3. Mavlonova R.A., To'rayeva O.T., Holikberdiyev K.M. Pedagogika, T., O'qituvchi, 1999 y.55 b

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1998. 26 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. "Sharq" 1999.
3. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq T., 1994., 27 b.
4. Kodiriy A. O'tgan kunlar T., 1992.
5. Yusupov E. Ma'naviyat asoslari. T. 1998.18 b.

5- AMALIY MASHG'ULOTLARI: BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASB TARBIYASIDA TARBIYACHI VA SINIF RAHBARINING O'QUVCHILAR JAMOASI BILAN ISHLASH USULLARI.

